бораётганида йўлда машҳур муҳаддислар билан мулоқотда бўлади ва уларнинг биридан ҳадислардан сабоқ беришини илтимос қилади. У олим: «Бўлмаса қоғоз-қалам ол», деган. Аксига олиб шу пайт ат-Термизий қалам топа олмаган ва олим рўпарасида ўтириб эшитган ҳадисларини ёзиб олаётгандек қоғоз устида кўлини ҳаракат қилдираверган. Олим эса турлитуман ҳадислардан етмишга яқинини ҳикоя қилган. Шу орада олим қоғозга қараб унда ҳеч қандай ёзув йўқлигини кўрган ва Термизийнинг бу ишидан жаҳли чиққан. Термизий шунда бамайлихотир «Сиз айтган ҳадисларингизни ёддан айтиб берайми?» – дегану ҳозиргина олимдан эшитган ҳадисларнинг ҳаммасини бирин-кетин такрор айтиб берган. Термизийнинг хотираси кучлилигидан ўша олим ҳайратга тушиб қойил қолганлигини билдирган. Берилган маълумотдан келиб чиқиб, Имом Термизийнинг хислат ва фазилатларини айтадиган бўлсак, умумий тарзда ўзига хослик, етуклик, жиддийлик, тарбияланганликларини, ахлоқий фазилатлари сифатида эса биз у кишида инсонпарварлик, самимийлик, иймонлилик, фидокорлик, хушмуомалалик, илтифотли бўлишлик, ҳалоллик, меҳнатсеварлик кабиларни, ишбилармонлик хислатлари сифатида эса ишчанлик, тиришқоқлик, серҳаракатлилик, масъулиятлилик, малакалилик, уздабуронлик, саранжом-саришталик, тадбиркорлик, аниқлик, тежамкорлик, баркамоллик ва бошқаларни, зукколик фазилатлари сифатида эса зеҳнлилик, хотиржамлик, соғлом фикрлилик, донишмандлик, сезгирлик, заковатлилик, топқирлик, танқидийлик, далиллик, омилкорлик, саводхонлик кабиларни, собитлик хислатлари сифатида эса фаоллик, қатъиятлилик, бир сўзда туришлик, барқарорлик, интизомлилик, ўзини йўқотмаслик, совуққонлик, ўзига талабчанлик, камсуқумлик, ўзини ўзи идора эта билиш ва илм йўлида ҳар қандай синовга тайёрлиги, илмга муҳаббати баландлигини ва бошқаларни кўришимиз мумкин.

Имом Термизийнинг маданий меросида, шубҳасиз, «Ал-Жомиъ» асари катта аҳамиятга эгадир. Бу асар «Ал-Жомиъ ас-саҳийҳ» («Ишончли тўплам»), «Ал-Жомиъ ал-кабийр» («Катта тўплам»), «Саҳийҳ ат-Термизий», «Сунан ат-Термизий» («Термизий суннатлари») номлари билан ҳам юритилади. Ўз устозлари Имом ал-Бухорий, Имом Муслим асос солган хайрли ишни Имом Термизий чуқур масъулият ва катта идрок билан давом эттирди. Ҳадисшуносликнинг илмий асосда ривожланишига улкан ҳисса қўшиб, мусулмон дунёсидаги энг нуфузли муҳаддислардан бири даражасига кўтарилди. «Ал-Жомиъ ас-саҳийҳ» олим машаққатли меҳнатининг маҳсули сифатида ҳадис илмида катта аҳамиятга эга. Энг аввало шуни айтиш керакки, муаллиф ўз асарини алоҳида-алоҳида бобларга бўлади, имкони борича ҳар

бир ҳадис ровийларини келтиради. Ҳар бир ҳадисдан кейин унинг ишончли ёки ишончсизлик даражасини аниқлаб алоҳида кўрсатади. Асарда панд-насихат, ахлоқ-одоб, гўзал хулқу фазилатлар хусусида ҳам жуда кўп ҳадиси шарифлар келтирилганки, бу даражадаги ҳадислар ҳеч бир муаллиф асарида учрамайди, десак муболаға бўлмайди. Муаллиф ровийларнинг фикр-мулоҳазалари, пайғамбар алайҳиссаломга яқин бўлган саҳобалар ва бошқа уламолар фикрига таяниб ҳадис ҳақидаги фикрларини баён этади. Асарга киритилган бир неча минг ҳадисни шундай тадқиқ қилиш муаллифдан тинимсиз меҳнат, сабр-тоқат, иродани талаб қилганлигини тасаввур қилиш қийин эмас. Чунончи, Имом Термизий китобларида бу хилдаги ҳадисларнинг бирмунча кўплиги унинг беназир изланишларидан далолатдир. Бундан ташқари Абу Исо ат-Термизий биринчи бўлиб ҳадисларни саҳийх, ҳасан, заифга тақсим қилган олимдир. Имом Термизий ўз устози ва сафдоши Имом ал-Бухорий суҳбатида бўлганда у Имом Термизийга «Мен сендан кўрган фойда сен мендан кўрган фойдадан кўпроқ», деб унинг билими ва ақл-идрокига юксак баҳо берган. Аллома жамият тараққиёти ва маънавияти равнақиға хизмат қиладиган фойдали ғоя ва мафкуралар яратиш, муаммоларни ҳал этишнинг мақбул, янги йўлларини топишда ниҳоятда ўткир бўлганлар. Бинобарин илм-фан тараққиётидаги ўзгаришларни теран англаб шариат аҳкомларини замонга мос равишда талқин қилиш ҳар қандай даврда ҳам жамиятнинг ҳар томонлама тараққий этишига сезиларли восита бўлган.

Абу Исо Термизийнинг «Ал-Жомий ас-саҳийх» асарида келтирилган ҳадиси шарифлар катта тарбиявий аҳамиятга эга бўлиб ёшларимизни ҳалол, адолатли, иймон-эътиқодли, диёнатли, покиза, меҳнатсевар, мурувватли, раҳм-шафқатли, ота-она, аёлларга нисбатан ҳурмат-эътиборли бўлишга чорлайди. Биз қуйида асардан баъзи парчаларни келтирамиз:

- «Аллоҳ наздида энг яхши дўст деб одамларга доимо ҳайрли ишларни қилиб юрувчи кишига айтилади».

- «Ҳайрли ва яхши ишлар қилишга даъват этишинг ва зулмдан қайтаришинг – сенинг садақанг».

- «Ҳақиқий мўмин деб хушхулқ ва аёлига нисбатан хушмуомала кишига айтилади».

- «Кимда-ким бир кўчат ўтқазса, ё бўлмаса экин эксаю, улар ҳосилидан одамлар, қушлар ва ҳайвонлар баҳра олса, бу ҳам ўша одам учун садақа саналади».

- «Барча мусулмонлар ўзаро биродардурлар. Улар ҳеч қачон бир-бирларига ёмонликни раво кўрмасликлари керак. Кимда-ким ўзининг мусулмон биродарига ёрдам қилса, охиратда Аллоҳ унга ёрдам қилади.

- «Кимда-ким ўз биродарини ҳожатини енгиллатса, Аллоҳ ҳам унинг охиратини енгил қилади».

Бу ибратли панд-насихатлар ва ўғитлар халқимизни, жамиятимиз аҳлини, айниқса ёш авлодни тарбиялашда беқиёс аҳамият касб этишини алоҳида таъкидлаш ўринлидир.

Хулоса қилиб айтганда, буюк бобокалонимизнинг шахсий ҳаёти ва унинг бой маънавий меросини чуқур ва ҳар томонлама ўрганиш ҳам илмий, ҳам амалий жиҳатдан катта аҳамиятга эгадир. Том маънода Имом Термизий ҳазратлари биз учун доимо маънавий идеалдир.

Адабиётлар

1. «Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш чоратадбирлари тўғрисида»ги 2017 йил 14 февралдаги ПҚ-2774-сонли Қарори.
2. Абу Исо ат-Термизий. Аш-шамоил ан-набавийя. Тошкент: Адолат, 1993.
3. Абу Исо ат-Термизий. Сунан ат-Термизий. Тошкент: Адолат, 1999.
4. Уватов У. Икки буюк донишманд. Тошкент: Шарқ, 2005.

HISTORY OF DJARKURGAN TOWER

Tashimov Bahodir Bahridin oqli

2nd year student of Termiz Economic Service University, Faculty of Pedagogy and Social and Humanities, Department of History

Allamuratov Shukhrat Ashurovich

Doctor of Philosophy in History (PhD), Scientific supervisor.

It is important to study the history of the country, analyze the events of the past life of our ancestors, rely on our achievements today and create suitable conditions for the future generations. The Surkhan oasis, which is the southern region of Uzbekistan, has been making a worthy contribution to world development with its unique culture, art, and invaluable social lifestyle. Having a special influence in the Surkhan oasis, Djarkurgan developed as a major economic and political military center of Chaganiyan in the Middle Ages, a convenient base for trade and commerce with Termiz, connected to caravan routes. During this period, the Minor architectural ensemble, which is of special importance in world architecture, was built in the territory of Djarkurgan, and the cultural development

grew even more. Djarkurgan Tower The pamphlet "Djarkurgan Tower" published by famous scientist Z.A.Arshavskaya in 1984 in the publishing house "Uzbekistan" has attracted special scientific researches in the world material culture. tried to provide the reader with information about the Djarkurgan tower, which testifies to its history. In the rapid growth of cities, the XI-XII centuries stand out from the history of Central Asia. During this period, the cities of Termiz and Chaganiyan, which are large handicraft and trade centers in the territory of the present Surkhandarya region, are of great importance. Construction, especially the construction of magnificent structures, will be in full swing. A unique school of architecture begins to emerge here. The rare monuments of the Surkhandarya oasis, which enriched the priceless treasure of the architecture of Central Asia, are the early tombs of the Sultan-Saodat ensemble, the mosque near the Hakim al-Tirmizi mosque, the mausoleum of the Khoja-Isa mosque, as well as the luxurious carvings of the governors of Termiz. palace was built at the same time. Unfortunately, this palace has not reached us.

At the beginning of the 20th century, researchers noted that the cylindrical tower of Djarkurgan, which has reached us, is the oldest of the unique structures built in Central Asia (423 Hijri - 1032 AD). Therefore, the tower of Djarkurgan (in the Middle Ages, the village of Charmangan was located here) is one of the only monuments preserved in the Surkhandarya oasis. Despite the fact that the upper part of the tower has been destroyed, it still seems to have not lost its architectural integrity, it fascinates with its magical appearance. Today, in the place of a cozy courtyard with pomegranate trees surrounding the minaret, there were once brick buildings, among which was considered the largest multi-domed mosque building. Although the minaret apparently belonged to this mosque, it did not approach it, but rose further away. This is evidenced by the fact that its entrance corridor was built almost at the ground level, not at the height of the roof of the adjacent building, as observed in other towers of Central Asia. Some historical evidence or information can be found only in some of the architectural monuments. In this regard, it is particularly important that historical records are kept in the Djarkurgan tower. According to M.E.Masson, the date 503 Hijri (1109-1110 years) on the course part of the minaret confirms the design of this device. The titles of Sanjar, governor of Khorasan, are recorded. The tower was built by order of Sultan Sanjar. According to V.A.Shishkin, the tower was built in 502 AH (1108-1109). On one of the sides of the middle part of the minaret, a vertical panel with the name of master Ali ibn Muhammad al-Sirahvi is carved. Among the monuments of this type of Central Asia, the Djarkurgan tower stands out with its unprecedented body, sixteen connected semi-columns. These pillars have a convex (rib) shape, and such a

surface resembles a flower with many leaves in a horizontal section. As you go down, the bumps seem to spread out. In the upper part, they are directly glued with a chain of arches and a wide epigraphic border. The windows and the frame, in turn, pass the basement of the next section of the minaret. This part of the building is also made in a convex shape, and it is assumed that the top of it is also decorated with an epigraphic border. Like all known minarets, the tip (peak) of the Djarkurgan minaret probably ended with a muezzinkhana with a hole. Of the tower is difficult to determine, but it is estimated to have been about 50 meters high, as the preserved part is 21.6 meters. Due to the narrowing of the upper side of the tower's body and the elegant decoration, its appearance increases in strength and beauty.

The creator of the Djarkurgan tower faced a very difficult task of decorating the surface of a complex shape in the wave style of bricklaying. In order to achieve this, it was necessary to pay special attention to the graceful section of decorative proportions in the circular section, taking into account the increasingly narrow upper part of the tower body. Especially placing the floral letters of the "Kufian" letter in the circular border required great responsibility and accuracy. Effectively solving this complex task testifies to the extremely high skill of the architects. At the top of the tower, the proportions of the decorations are solved in a unique way. Between the arches and the decorative border are sixteen low arched chains connecting them. The space between the windows is slightly deepened to the inside, and the bricks are laid in a simple style. In this case, the contrasting landscape created due to the shadowing of the deepening area between the archways, which is convex towards the surface (well lit), gives the appearance of the tower more beauty and elegance. The superficial triangular shapes formed between the scrolls and the epigraphic border are decorated in a checkerboard pattern with brick-cut buttons and butterfly motifs. A verse from the Qur'an was inscribed on the flat surface of the epigraphic border by picking up pieces of brick. Plant-like decorative elements are placed between the upper part of the alif letters. The lower and upper parts of the border are finished with a narrow chain made of brickwork buttons, triangles, and interlocking half rings. In the center of each edge there are graceful arched projections. Only one of these takhmans, the takhman dahka on the southern edge, leads to the circular staircase in the inner part of the minaret. The secrets of the edges were once decorated with uncomplicated geometric (gyrix) patterns. But unfortunately, before the repair work started, the lower part of the chair was badly damaged. Therefore, the geometric decoration was only partially restored. The upper part of the chair is almost completely preserved. Here, the upper part of the tahman is a special inscription made of

terracotta fragments in a square frame, which records the time of construction of the minaret and the name of the person who ordered the construction of this structure.

In 1938, the tower was first explored by the Termiz archaeological expedition. In doing so, the foundation of the building was opened and the danger of its being buried in the ground was put to an end. In 1948, as a result of the repair works under the leadership of the architect V.P.Petrov, the original appearance of the Djarkurgan tower was almost restored. Currently, the Djarkurgan tower is under state protection and is considered an important historical and cultural object.

References

1. Hakimov Z. Jarqo'rg'on minorasi. –T.: O'zbekiston, 1989.
2. Tursunov S., To'xtayev A., Annayeva Z. Jarqo'rg'on tarixidan lavhalar. – T.: Yangi nashr, 2017. - 566 b.
3. Турсунов Н. Н., Алламуратов Ш. А. Развитие торговых отношений и ремесел в бекствах Восточной Бухары //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 3. – С. 348-353.
4. Allamuratov S. A., Dzhuraeva U. C. IRRIGATION AND RECLAMATION WORKS IN THE SURKHAN OASIS //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 88-95.
5. Tursunov S., Qobilov E., Murtazayev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. – T: Sharq, 2004. – B. 608.
6. Allamuratov S. A. In the Surkhan own in the soviet period irrigation and land reclamation works //Academicia: an International multidisciplinary research Journal. – 2021. – Т. 10. – №. 5. – С. 110-115.
7. Ashurovich A. S. Craft and trade relations in eastern beks of the bukhara emirate //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1376-1380.

**YOSH PEDAGOGNING KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHI VA IJTIMOIIY-
PSIXOLOGIK JIHLTLARI***Mahmuda Jamolova**Yoshlar muammolarini o‘rganish va
istiqbolli kadrlar tayyorlash institute**1-bosqich tayanch doktoranti**mahmudajamolova9297@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu tezisda pedagoglarning kasbiy o‘zligini anglashning ijtimoiy-psixologik jihatlari yoritilgan bo‘lib, dunyo oilmlarining bu jarayon bo‘lgan munosabatlari keltirilgan. Shuningdek, kasbiy o‘zlikni anglash yosh pedagoglarda ma‘lum bir bosqichlardan o‘tib, qulay shart-sharoitlarni yaratish kerakligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, kasbiy o‘zlikni anglash, ijtimoiy-psixologiya, kutuvlar, ijtimoiy rollar

Abstract. In this thesis, the understanding of the professional identity of pedagogues is illuminated from a socio-psychological point of view, as well as the relations of world sciences regarding this process. , it is stated that young pedagogues need to go through certain stages to realize their professional identity and start working in favorable conditions.

Key words: pedagogue, professional self-awareness, social psychology, expectations, social roles

Pedagoglar faoliyati har qanday zamonda va makonda dolzarb hisoblanib jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy unsur sifatida ko‘rilgan. XIX asrning 2-yarmidan boshlab nafaqat o‘qitishning psixologik jihatlari, balki pedagoglarning shaxsiyatiga ham e‘tibor berish boshlandi. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilar pedagoglar faoliyatiga qizib, pedagogika-psixologiya fani rivojiga katta hissa qo‘shishgan. Psixologiyaning Bixoverizm yo‘nalishi a‘zolari pedagog tarbiyachilarning shaxsiyatiga tashqi muhit ta’sirlarini o‘rganishgan. Pedagoglarning kasbiy o‘zligini anglashda xayol, xotira, iroda, tafakkur, nutq, individual xususiyatlari (temperament, xarakter), qiziqishlari, ta’lim jarayoning boshqarishning psixologik jihatlari muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-psixologlar esa pedagoglarning kasbiy o‘zligini anglashda ularning shaxsiyati bilan parallel ravishda ozaro muloqot qilish qobiliyatlarini asosiy jihatlardan biri deb takidlashdi. Kasbiy faoliyatda pedagoglar turli dinamikagi o‘qivchi-talabalar bilan bir vaqtning o‘zida muloqot qilishlariga to‘g‘ri keladi. Muloqot murakkab tushuncha bo‘lib, pedagog va o‘quvchilar jamoasidagi iqlimni, shuningdek, guruh ichidagi o‘zaro munosabatlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining muloqot va faoliyatining mohiyati shaxsga bog‘liq. Bu insonning nima uchun

ishlashi, qanday maqsadlarga erishishi, buning uchun qanday usullardan foydalanishi, turli muammolarni hal qilishini belgilaydi.

Orlovning pedagoglar psixologiyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'qitish sohasini tanlagan shaxslar o'ziga xos motivatsiya va ehtiyojlar bilan harakatlanadi. Buni olim markazlashtirish terminologiyasi deb tasniflaydi. Bunda pedagog jarayonning barcha ishtirokchilari ya'ni o'quvchi talabalar haqida qayg'uradi va ularning ma'lum maqsadlarga qanchalik muvaffaqiyatli erishayotganini nazorat qiladi. O'qituvchilar auditoriya bilan muloqot qilishda shaxslararo munosbatlarning psixologik tamoillariga e'tobor qaratishadi. Hatto auditoriyaning qiziqishlariga moslashishga to'g'ri kelganda ham shaxsiy nuqtai nazarlarga asoslanib tanlovlarini amalga oshirishadi. Pedagogning xulq-atvori va kognitiv jarayonlari ularning markazlashgan yondashuviga ta'sir qiladi[1].

I.V. Vachkov asarlarida o'z-o'zini anglash muammosiga bag'ishlangan juda qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Psixolog pedagog ongini rivojlantirishning bir necha bosqichlarini qayd etadi: vaziyatli pragmatizm, egosentrik qadam, stereotipga bog'liq bosqich, sub'ektni qabul qiluvchi, sub'ekt-universallik kabi bosqichlar. O'qituvchining o'z-o'zini anglashining rivojlanish bosqichini aniqlash uchun uning markazi nima ekanligini, shaxs qanchalik mustaqilligini, uning faoliyatining yo'nalishini tushunish kerak. O'qituvchi yangi narsalarni qanchalik qabul qila olishiga baho berish lozim.

Pedagog o'z-o'zini anglashining eng yuqori darajasi bu egosentrizm bo'lib, hamma uchun foydali bo'lgan natijalarga e'tibor qaratishga o'tishdir. Birinchidan, ekosentrizmda diqqat inson o'zini o'zi tasdiqlashga qaratilganligi uchun uning shaxsiyati asosiy hisoblanadi. Lekin ideal pedagog uchun jamiyat, bilim va faoliyat natijalari birinchi o'rinda turadi. U umumiy manfaatlar uchun harakat qiladi. Bu ma'lum bir shaxsdan tortib, umuman insoniyatgacha bo'lgan barcha darajalarga tegishlidir.

Pedagogning ijtimoylashuvi va samarali mehnat faoliyatini olib borishiga uning o'qitish mahorati va qobiliyati ham ta'sir etadi. Pedagogning qobiliyatlari - bu doimiy shaxsiy fazilatlar, o'ziga xos xususiyat ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi ob'ektning retseptivligi bilan baholanadi. O'qituvchi o'qitish vositalarini, o'z ish sharoitlarini idrok etishi kerak. Uning vazifasi tinglovchi va so'zlovchi o'rtasida samarali hamkorlik tizimini shakllantirishdan iborat bo'lib, o'quvchi-talabalar shaxsiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazishdir.

Kuzmina asarlarida pedagog qobiliyatining bir nechta darajaga ajratgan. Bu darajalar idrok etish, aks ettirish va proyektivlik deb hisoblagan. Birinchisi, so'zlovchi tinglovchining shaxsiyatiga kirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu

pedagog talaba o'zini qanday idrok etishini tushunish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, pedagog uchun sifat asosiy hisoblanadi. Bu boshqalarni o'rganish, ularga hamdard bo'lish, boshqalarning motivlari va harakatlarini tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shundagina o'qituvchi boshqa birovning nuqtai nazarini idrok eta oladigan va unga baholaydigan qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunday qobiliyatlar o'qituvchi shaxsining o'zagini tashkil etadi. Agar ular bo'lmasa, kasbiy sifat yuzaga kelmaydi. Bu qobiliyatlar o'qitish ishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, pedagoglar o'quvchi-talablarning aqliy rivojlanishiga e'tibor qaratishi kerakligini ko'rsatadi[1].

Ta'lim sohasida, ayniqsa, yosh o'qituvchilar orasida kasbiy o'ziga xoslik tushunchasi ularning martaba yo'nalishini va rollaridan umumiy qoniqishni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kasbiy o'ziga xoslik - bu odamlarning o'zlarining kasbiy rollari bilan bog'laydigan e'tiqodlari, qadriyatlarini, munosabati va xatti-harakatlari va ular tanlagan sohada o'zlarini qanday qabul qilishlarini anglatadi. Yosh pedagoglar uchun kuchli kasbiy shaxsni shakllantirish nafaqat o'z farovonligi, balki o'quvchilarga berayotgan ta'lim sifati uchun ham zarurdir[3].

Ijtimoiy va psixologik omillar yosh pedagoglarning o'z kasbiy shaxsiyatini qanday qabul qilishlarida muhim rol o'ynaydi. Quyida o'qituvchilarning o'zini o'zi anglash va kasbiy o'sishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar berilgan.

1. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va tasdiqlash.

Yosh o'qituvchilarning kasbiy o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri ularning tengdoshlari, murabbiylari va ta'lim muassasalari tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasidir. Ijobiy fikr-mulohazalar, rag'batlantirish va boshqalarning tasdiqlashi ularning malaka va kasbga tegishlilik hissini oshirishi mumkin. Aksincha, qo'llab-quvvatlashning etishmasligi yoki salbiy o'zaro ta'sirlar izolyatsiya tuyg'usini keltirib chiqarishi va ularning qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini susaytirishi mumkin.

2. Rolning aniqligi va kutuvlar.

Yosh o'qituvchilarning kuchli kasbiy o'zlikni shakllantirishlari uchun ularning roli va mas'uliyatini aniq tushunish zarur. Noaniqlik yoki qarama-qarshi taxminlar chalkashlik va xavotirni keltirib chiqarishi mumkin, bu ularning o'zini-o'zi anglashi va ishdan qoniqishiga ta'sir qiladi. Yuqori darajali hamkasblar va rahbarlarning samarali muloqoti va yo'l-yo'riqlari ularga ta'lim landshaftining murakkabliklarida harakat qilishda yordam berishda juda muhimdir.

3. Shaxsiy qadriyatlar va e'tiqodlar.

Shaxsiy qadriyatlar va e'tiqodlar va ta'lim muassasasi tomonidan o'rnatilgan tartib qoidalar o'rtasidagi uyg'unlik yosh o'qituvchilarning o'zlarining kasbiy

shaxsini qanday qabul qilishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar ularning asosiy qadriyatlari muassasaning tartib intizomi bilan uyg'un bo'lsa, ular o'z ishlarida qoniqish hissini ko'proq his qilishadi. Boshqa tomondan, qadriyatlar dissonansi ularning pedagog sifatidagi kimligini shubha ostiga qo'yadigan axloqiy dilemmalar va axloqiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

4. Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari.

Doimiy o'sish va o'rganish yosh pedagoglarda mustahkam kasbiy shaxsni shakllantirishning ajralmas qismidir. O'quv dasturlari, seminarlar hamda hamkorlik va tadqiqot imkoniyatlaridan foydalanish ularning malakasi va bilim bazasini oshirishi mumkin, shu bilan birga ularda o'ziga bo'lgan ishonchi va professionallik hissini oshiradi. Bunday imkoniyatlarning yo'qligi ularning kasbiy o'sishiga to'sqinlik qilishi va karerasida turg'unlikka olib kelishi mumkin.

5. Hissiy intellekt va chidamlilik.

Pedagog kasbining hissiy talablari yosh pedagoglardan yuqori darajadagi hissiy intellekt va chidamlilikni talab qiladi. Stressni boshqarish, muvaffaqiyatsizliklarni yengish va o'quvchilarning ehtiyojlariga hamdard bo'lish qobiliyati ijobiy kasbiy o'ziga xoslikni saqlash uchun juda muhimdir. O'z-o'ziga e'tiborli bo'lish orqali hissiy farovonlikni rivojlantirish va kerak bo'lganda yordam so'rash ularga kasbdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi[4].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yosh pedagoglarning kasbiy o'zlikni anglashining ijtimoiy-psixologik determinantlari ko'p qirrali va o'zaro bir-biriga bog'liqdir. Qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, rollar va kutuvlarning ravshanligini ta'minlash, shaxsiy qadriyatlarni kasbiy axloq bilan uyg'unlashtirish, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish va hissiy intellektni rivojlantirish orqali ta'lim muassasalari yosh o'qituvchilarga o'zlarining rollarida muvaffaqiyat qozonishlari va ta'lim sohasi o'z potentsiallarini ro'yobga chiqarishlari mumkin.. Ushbu hal qiluvchi omillarni tushunish orqali yosh pedagoglarning o'sishi va samarali mehnat faoliyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur muhit yaratilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Douwe Beijaard, Paulien C. Meijer, Nico Verloop. Reconsidering research on teachers' professional identity. *Teaching and Teacher Education*. Volume 20, Issue 2, February 2004, Pages 107-128
2. Gee, JP 2000, 'Identity as an analytic lens for research in education', *Review of Research in Education*, vol. 25, pp. 99-125. <https://doi.org/10.3102/0091732x025001099>
3. Ivanov. M.E,Zufarova. Umumiy psixologiya. T.: 2023
4. Les Tickle. *Teacher Induction: The Way Ahead*. Developing Teacher Education. 2000-05-01P.I.

5. Manka M. Varghese, Suhanthie Motha, Gloria Park, Jenelle Reeves and John Trent. In This Issue [on Language Teacher Identity]. 2016. <https://www.researchgate.net/publication/337022162>
6. McCormick, C. B., & Pressley, M. (1997). Educational psychology: Learning, instruction, assessment. Longman Publishing/Addison Wesley L.
7. Predrag Zivkovic. The Nexus Between Teacher Professional Identity And Some Socio-Demographic And Psychological Variables. European Scientific Journal April 2016 /SPECIAL/ edition ISSN: 1857 – 7881 (Print) e - ISSN 1857- 7431
8. Pedagogik faoliyat psixologiyasi: asosiy ta'riflar, tuzilishi, usullari. Uz.relegionmystic.com
9. Ушинский К.Д. Три элемента школы //Собр. соч. Т.2. Л., 1948
- 10.Unlock Your Professional Identity: Strategies for Psychological Growth. <https://psychology4u.net/psychology/professional-identity/#>:

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Dilfuzaxon Anvarovna Buranova

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti o‘qituvchisi

Anvarov Bekzod Eldorbek o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada aqlli qishloq xo‘jaligini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha chet el tajribasi, shuningdek qishloq xo‘jaligi sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj haqida so‘z boradi.

Аннотация. В данной статье говорится о зарубежном опыте внедрения цифровых технологий в умное сельское хозяйство, а также о необходимости использования цифровых технологий в аграрном секторе.

Kalit soʻzlar: raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, aqlli qishloq xo‘jaligi, avtomatlashtirilgan tizimlar, texnologiya, agrar soha, avtomatlashtirish, suv resursi, yer resurslari, fermer, iste‘molchilar, agrosanoat, ekin, hosildorlik.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровизация, умное сельское хозяйство, автоматизированные системы, технологии, аграрный сектор, автоматизация, водные ресурсы, земельные ресурсы, фермер, потребители, агропромышленный комплекс, урожайность, продуктивность.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilm-ma‘rifatga alohida urg‘u berilishi va bu orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo‘yilishi

iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to‘liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga qaratilgan muhim qadam ifodasidir.

Raqamli texnologiya bu – xo‘jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo‘lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an’anaviy ho‘jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Raqamli texnologiyalarga o‘tish deganda, zamonaviy kompyuterlar va sohaga oid bilimlarga asoslangan holda jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining butunlay yangicha turini barpo etishni tushunamiz.

Raqamli texnologiyalarga o‘tish jarayonining asosiy tarkibiy qismlari sifatida ma’umotlar bilan ishlashni amalga oshirib beradigan mobil ijtimoiy tarmoqlar, bulutli texnologiyalar, sensor tarmoqlar, buyumlar interneti hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini misol sifatida ko‘rsatish mumkin. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan texnologiyalar birgalikda “aqlli” ob’yekt va jarayonlarni yaratishga imkon beradi.

Raqamli o‘zgartirish turli darajalarga erishib, ular o‘rtasidagi farq ikkita atama “raqamli ko‘rinishga keltirish” va “raqamlashtirish” o‘rtasidagi farq bilan bir xil ma’noga ega bo‘ladi. Raqamli ko‘rinishga keltirish bu axborotni jismoniy vositalarda raqamli vositalarga o‘tkazishdir. Raqamli ko‘rinishga keltirishga misollar elektron kitoblar, videokurslar, suratning raqamli nusxasini yaratish va boshqalar shular jumlasidandir. Bunda axborot strukturasi o‘zgarishi ro‘y bermaydi, u faqat elektrona shaklga ega bo‘ladi. Raqamli ko‘rinishga keltirish ko‘pincha mavjud biznes-modelni takomillashtirish va biznes jarayonlarni optimallashtirish uchun foydalaniladi. Raqamlashtirish esa raqamli shaklda bo‘lgan butunlay yangi mahsulotlar yaratishdir. Masalan multiplikatsiyali dinamik o‘quv kursi yoki hujjatni sharhlashning interaktiv tizimi - bu raqamlashtirishdir.

Taxminlariga ko‘ra, 2050 yilga borib yer sayyorasi aholisi 9,6 milliardga etib, ularni oziq-ovqat bilan ta’minlash uchun bugungiga nisbatan 70 foiz ko‘p mahsulotlar kerak bo‘lar ekan. Ammo, ekologik vaziyatning yomonlashishi, energiya vositalarining qimmatlashuvi va yer unumdorligining pasayib ketishi talab darajasidagi oziq-ovqat ishlab chiqarishga jiddiy to‘siq bo‘lishi ham ta’kidlanmoqda. Bu muammolarni dehqonchilik faoliyatini o‘ziga hos usullar asosida boshqarish, xususan, sohaga buyumlar interneti konsepsiyasi kabi zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlarni kiritish, bir so‘z bilan aytganda, “aqlli” qishloq xo‘jaligi orqali hal etish mumkin.

Albatta, bularning ustida ishlash uchun hozirgidan tamomila boshqacha mashinalar va agregatlar kerak. Ta’kidlash joizki, qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi dunyoning yetakchi kompaniyalari o‘z taraqqiyot

strategiyalarini dehqonchilik jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilab olishni allaqachon boshlab yuborishgan.

Dehqonchilikda datchik va sensorlardan foydalanish — intellektual ferma tashkil etishda muhim qadam hisoblanadi. O'nlab kvadrat kilometr joydan ular radiokanallar orqali nazoratdagi ob'ektlar holati — asosan, tuproqning namlik darajasi, harorat, o'simlikning sog'lomlik darajasi, yonilg'i zaxirasi va boshqa muhim parametrlar haqida uzluksiz ma'lumot yetkazib tura oladi.

Masalan, nazorat nuqtalariga o'rnatiladigan sensorlar tuproq xususiyatlarining asosiy tizimlarini aniqlashga moslashtirilgan. Datchiklar esa tabiiy xilma-xillik, kasallikka chalingan o'simlik, hosildorlik haqida oldindan ma'lumot beradi. Sensor va datchiklar nafaqat ekin yetishtirishga, balki hosilni to'liq saqlashga ham yordam beradi. Bularning bari o'simliklarni parvarishlashga aql bilan yondashuvni ta'minlaydi.

O'zining barcha afzalliklariga qaramay, aqlli qishloq xo'jaligi hali rivojlanishning boshlang'ich bosqichida. "AQSHning Trimble" kompaniyasi hisobotiga ko'ra, dunyodagi har to'rtta fermeridan faqat bittasi ma'lumotlar yig'ish bazasidan foydalanadi. Bunga moliyaviy omillar (bunday infratuzilmani tashkil etish fermerlar tomonidan salmoqli dastlabki sarmoya talab qiladi) asosli to'siq bo'lib turibdi. Bundan tashqari, ma'lumotlar xavfsizligi, dehqonchilikdagi o'ziga xos siyosat va ob-havo ham aksariyat fermerlarni ikkilantiradi.

Uzoq yo'lni bosib o'tgan texnologiyalar hamon rivojlanishda. Bugunga kelib, veb-interfeysli qurilmalar va xizmatlar ancha ko'p ommalashdi, shuning uchun ham buyumlar internetiga bo'lgan qiziqish rekord darajada yuqori o'rinni band etib turibdi. Fermerlikning an'anaviy usullari o'sib borayotgan oziq-ovqat talabiga tenglasha olmaydi, shu bois fermerlar aqlli qishloq xo'jaligiga tobora ko'proq murojaat qilishmoqda.

Qishloq xo'jaligining takomillashgan tizimlarida turli "aqlli texnologiyalar" (smart-sensorlar) ekin va atrof-muhit sharoitidan kelib chiqilgan holda o'rnatiladi. Masalan, zararkunandalar va kasalliklarni oldindan aniqlovchi, iqlim nazorati — haroratni, namlikni, karbon dioksid darajasini o'lchovchi vositalar, ozuqa moddalari bilan ta'minlash va sug'orish asboblari kabilar shular jumlasidan. Ularning qo'llanilishi hosildorlikni kamida 30 foiz oshirishni kafolatlaydi.

Aytish mumkinki, ko'plab ilg'or texnologiyalar paydo bo'lishi odamlar hayotini tubdan o'zgartirib yuboradi. Bir qancha eski kasblar o'z kuchini yo'qotadi va yangi kasblar yuzaga keladi va shak-shubhasiz, dunyoni raqamli dunyoga aylantiradi. Dunyoni bunday raqamlashtirish barcha tarmoqlarda katta o'zgarishlarga olib keladi va asosiysi, buning natijasida ko'plab yangi

kompaniyalar paydo bo'ldi. Bunda raqamli o'zgartirish to'liqida o'ziga o'rin topibgina qolmasdan, uni boshqaradigan kompaniyalar yetakchiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qulmatova, B. A., Buranova, D. A. (2022). The role of digital technologies in agriculture. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04(108), 362-365. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-04-108-46>. Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS>. Scopus.ASCC:1700
2. N. Karimov, B. A. Qulmatova, D. Buranova. "Aqlli qishloq xo'jaligini yuritishda raqamli texnologiyalarning joriy etish masalalari". «The XXI Century Skills for Professional Activity» International Scientific-Practical Conference. TASHKENT, UZBEKISTAN 2021, MARCH 15.
3. N. Karimov, B. A. Qulmatova, D. Buranova. "Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarning joriy etish masalalari". *Academic research in educational sciences volume 2 | issue 3 | 2021*.

O'ZBEK XALQ TOMOSHA SAN'ATI TARIXI XAQIDA

Abdullayeva Ozodaxon Murodjonovna

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti teatr san'ati fakulteti
Qo'g'irchoqlar ishlab chiqarish texnologiyasi yo'nalishi 3- bosqich talabasi*

*B. Joraboyev
Ilmiy raxbar*

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan milliy qarashlar, muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart bo'lgan ur-fodat, udum, xulq-odob, marosim, an'ana, turmush tarzi, badiiy ijod, o'yin singari namoyon bo'ladigan muhim mezon bo'lgan o'zbek xalq tomoshalarining turlari va turfa o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. mulohaza va fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, tomosha, aktyor, bayram, badiiy, o'yin.

XALQ TOMOSHA SAN'ATINING YO'QOLIB BORAYOTGAN XALQ O'YINLAR.

Tomosha san'atining bugungi kundagi ahamiyati.

Xalqimiz tomonidan qadim qadimdan o'z yashash tarzi va turmushi, hayot faoliyatidan kelib chiqib ijtimoiy – madaniy ehtiyojlari samarasi o'laroq turli xil ko'ngilochar va xursandchilik qilishga moyil bo'lishgan. Bunda esa o'z o'zidan turli xil tomoshalarining paydo bo'lishi kuzatilgan.

O'zbek xalq tomosha san'ati va tushunchasi xaqida: "O'tmishda xalq san'atkorlari navro'z bayrami, hosil shodiyonasi, xalq marosimlari, bayramlari va

toʻylari munosabati bilan tomosha berganlar. Ming-minglab odam toʻplanadigan tomoshagohlar va toʻyxonalarda birga yoki yonma-yon namoyish qilinadigan masxaraboz va qiziqchilarning chiqishlarigʻilganlar. Oʻzbek xalq tomosha sanʻati keng va rang barang koʻrinishlarga ega boʻlgan. Uning har bir turi oʻziga xos badiiy syujet va xatti- xarakatlarga boy qiziqarli jihatlari bilan ajralib turadi. Xalqimiz tomonidan yaratilgan va asrlar mobaynida shakllanib takomillashib kelgan tomosha sanʻatining bir qator turlarga boʻlinadi.

Tomosha sanʻati turlari:

- Raqs tomoshasi;
- Qiziqchilik;
- Qoʻgʻirchoq oʻyini;
- Ot oʻyin;
- Qarsak oʻyini;
- Askiya tomoshasi;
- Aytishuvlar

1. Ushbu xalq tomosha turlari oʻziga xos badiiy koʻrinish va mohiyati bilan bir biridan ajralib tursa-da, lekin tomosha sanʻatining butun yaxlit asosini tashkil qiladi.

2. Turfa oʻyinlar. Xalqimiz orasida qadimdan insonni qurshagan tabiat va muhit bilan, urf-odatlar bilan bogʻliq boʻlgan turfa oʻyinlar ham mavjud boʻlgan. Mazkur oʻyinlarda bedana, kaklik, bulbul, xoʻroz, laylak, kaptar, chagʻalloq singari qush parrandalarning, ayiq, boʻri, qoʻchqor, toshbaqa, kalamush, yumronqoziq singari hayvonlarning tovushlari va hatti-harakatlariga taqlid qiliganlar. Ularda tomoshabinlarning qarsaklari bilan hosil qilgan ritmlari asosida, plastik va mimik harakatlar vositasi bilan qush hamda hayvonlarning obrazlari, oʻzaro munosabatlari nomoyon boʻladi. Ijrochilar bunday oʻyinlarni koʻrsatishda maxsus grim, niqob va gʻiloflardan foydalanganlar. Mazkur oʻyinlar orasida mehnatning toʻngʻich turlari bilan bogʻliq oʻyinlar va ajdodlarimizning qarashlari asosida yaralgan tabiat bilan bogʻliq oʻyinlar, tomosha tariximizni qanchalar boy ekanini koʻrsatib turibdi. Hayvon turlariga mansub oʻyinlar bugungi kunda uchalik koʻp oynalmasad lekin bu Tomosha quyidagicha ijro etilar edi. Masxaraboz yuziga qorakuya surtib, qoʻl va oyoqlarini gajak qilgan holda yumronqoziq qiyofasiga kiradi. Tomoshabinlar orasidan kuchli va novcha odam chiqib, toʻrt oyoqlab turib yumronqoziqning “ini” boʻladi. Toʻrt besh tomoshabin bir usulda qarsak chalib (baʼzida doira ham qoʻshiladi), bayt aytib turadi. Ijrochi – “yumronqoziq” bu ohangga mos turli harakatlar qila boshlaydi. Kishilar mazkur tomoshada biror zararkunanda obrazinigina emas, dehqon hosiliga sherik boʻluvchi noinsof va xiyonatkor amaldorlarning majoziy satirik tasvirini qiyofasini koʻrganlar. Tariximizda bu kabi

ko`plab o`yinlar xalq dardini yomir va kulgi orqali ko`rsatib berilgan. Xalq Tomosha san`atiga o`zining bitmas- tunganmas xissasini qo`shgan ko`plab usta oyinchilarimiz , askiyachi va qiziqchilarimiz bor ularni aytmak va eslamak also to`g`ri bo`lmaydi.

- Yusufjon qiziq,

- Usta Olim,

- Mulla To`ychi

- Toshkanboy darboz,

- Karim chavandoz,

- Aka Buxor,

- Komil Qori kabi ajdodlarimiz yo`qolib borayotgan xalq o`yinlarining asoschilari edi. Bugungacha bizgacha yetib kelib hozirda ham, xalq tomoshalarida va navruz bayramlari , hamda xalq sayillarida ijro etilayotgan o`yinlarimiz xam bor. Askiya san`ati qiziqchilik. Boshqa turlari esa sekin asta tarixga aylanib yo`qolib bormoqda. Yog`och oyoq o`yinlar, ot o`yinlar, “qarsoq” o`yinlari, “chodir jamol”, “chodir xayol”shular jumlasidan. Bugungi kunda ananaviy ijrodan profesanal darajaga yetib kelgan tomoshalarni ham aytmak bo`lmaydi.

Qo`g`irchoq teatri ko`cha tomoshasidan buguni profesanal darajaga yetib keladi. Avvallari ko`chalarda yoki bo`sh kengliklarda qo`g`irchoq tomoshalari ijro etilgan bo`lsa, bugungi kunda bu teatr tomoshalari teatr saxnalarida ijro etilmoqda. Lekin ba`zi tomoshalar xalq og`zaki ijodi umuman ijro etilmay qo`yildi. Bu tomoshalarni ijro etuvchi , milliy ananalarni va qadryatlarni ilgari suruvchi usta oyinchilar chiqmay qo`ydi. Aslida Tomosha san`atini yumirga juda boy bo`lgan xalq ijodi bo`lib, yo`qolib borayotgan oyin turlarini xalq ikki usul orqali yetkazish mumkun. Birinchsi -xalq orasidan lapar qo`shiqlar qiziqchilik , turli xil xalq o`yinlarini xalq orasidan yozib olib, uni adabiy jihatdan qayta ishlab yana xalqning o`ziga , ommaga qaytarish. Ikkinchi usuli merosni aynan ko`chirib olmasdan, bugungi mustaqil davr yoshlari tushunadigan va ijro eta oladigan hamda bunday xalq oyinlaridan sayillarda keng foydalanish uchun bu o`yinlarni, merosimizni qayta ishlab, kelajak yoshlariga san`at maktablari va oliygohlarida o`rgatish o`qitish zarur bo`ladi. SHunda ajdodlar merosini, yo`qolib borayotgan xalq og`zaki ijodini va xalq tomoshalarini saqlab qolishga o`z xissamizni bir muncha qo`shgan bo`lar edik. Shuningdek kelgusi avlodga etazib berishda xam katta imkoniyatlarga ega bo`lamiz.

Adabiyotlar

1. M.Qodirov. “O‘zbek xalq tomosha san‘ati”Toshkent O‘qituvchi. 1981. 7 bet, 213-214 bet
2. B.Sayfullaev. Tomosha san‘ati nazariyasi va tarixi. T-2014

**BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA ELEKTRON-AXBOROT TA’LIM
MUHITINI YARATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

Sanayeva Munisa Ilamonovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Bugungi kunda respublikamizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohatlarning asosiy maqsadi mamlakatimizning jahonning yetakchi davlatlari yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, har tomonlama yetuk, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilanishiga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta, chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga va innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya, bu- kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"⁷ - deb ta’kidlagan edilar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son8, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son9 Farmonlarida keltirilgan ustuvor vazifalarda ta’lim-tarbiya jarayonlarini sifatli va samarali tashkil etishga, shuningdek, ta’lim jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikatsion va innovatsion texnologiyalaridan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Umumta’lim maktablari biologiya ta’limida elektron axborot ta’lim muhitini yaratish sof texnik masala bo‘lib qolmasdan, balki buning uchun muassasaning ilmiy metodik, tashkiliy va pedagogik imkoniyatlarini tizimli yondashuv asosida jalb etish talab etiladi.

“Elektron axborot-ta’lim muhiti” tushunchasini aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini ta’minlovchi dasturiy, axborot-texnik, o‘quv-metodik tizimlar majmuidir, deb ta’riflash mumkin [1].

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasi.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.

Elektron axborot-ta'lim muhiti quyidagi tipologik belgilarga ko'ra tavsiflanadi:

1. Har qanday darajadagi elektron axborot-ta'lim muhiti tizimlilik tabiatiga ega murakkab tuzilmali ob'ekt bo'lib hisoblanadi.

2. Elektron axborot-ta'lim muhitining yaxlitligi tizimlilikka erishish tushunchasi bilan bir ma'noni, ularning uyg'unligini anglatib, ta'lim-tarbiya maqsadlarini o'zida mujassamlashtiradi.

3. Elektron axborot-ta'lim muhiti ta'lim va tarbiya ishlarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lishi bilan birga uning vositasi hamdir [2].

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, ta'lim muassasalarida biologiya ta'limi jarayonini elektron ta'lim vositalari yordamida tashkil etishning o'ziga xos quyidagi ijobiy tomonlari mavjud: o'quvchilarning axborotlarni qabul qilish va ularni qo'llash malakalarini rivojlantirish; vizual ko'rinishdagi verbal nusxalarni loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish; amaliy faoliyatida axborotlarni o'ziga xos tushunish va qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish; ommaviy axborot vositalari bilan erkin muloqotini ta'minlash imkoniyati mavjud [3].

Shu bilan bir qatorda, elektron-ta'lim muhitini ta'riflashda bir qancha o'zaro farq qiluvchi qarashlar mavjud, jumladan:

- shaxs bilan ta'lim muhitining sub'ekt sifatida uzviy bog'langan axborot, texnik, o'quv-metodik ta'minotning tashkillashtirilgan majmuasi;

- elektron axborot tashuvchilar, virtual kutubxonalar, taqsimlangan ma'lumot bazalari, o'quv-metodik majmualarini mujassamlashtiruvchi kompyuter, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi asosida qurilgan yagona axborot ta'lim muhiti [4].

Umumta'lim maktablarida elektron axborot-ta'lim muhiti quyidagi uchta asosiy vazifalarni bajaradi:

- tashqi muhit sub'ektlariga zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida umumta'lim maktablarining axborot-ta'lim muhiti to'g'risida tasavvur hosil qilishga yordamlashish; - umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan pedagog-xodimlarining o'zaro hamkorligini oshirish va o'zaro axborot-ta'lim resurslari almashishi muhitini yuzaga keltirish; - umumta'lim maktablarida axborot-ta'lim muhiti vositalari orqali samarali axborot almashinuvini tashkil etish va boshqarish [5].

Umumta'lim maktablarida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy maqsadi o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish, biologik kompetentligini rivojlantirish hamda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni yo'lga qo'yish hisoblanadi [6]. Shu sababli, bugungi kunda shaxsga yo'naltirilgan

ta'limda elektron-axborot ta'lim muhitini tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Foydalanilan adabiyotlar

1. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – Москва: “ИРПО”, 1996. – 336 с.
2. Забродская Л.М. Информационные технологии обучения и управления. Пут:– Л. 2001. – 86 с.
3. Ergasheva G.S. // Biologiya fani ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanish vosita va usullari. // Maktabda biologiya fani jurnali.. 2009. 4-son. –Toshkent, 10-14 b.
4. Saparov K.A., M.I.Sanaeva. Creation of electronic textbooks in modern biology education and general requirements for them. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany. April 30th, 2024.
5. Sanaeva M.I. Legal and theoretical basis of organizing modern biology education based on electronic information educational resources. International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research Hosted online from Cambridge, London Date: 30th September, 2023.
6. Sanaeva M.I. Improvement of the scientific methodology of teaching biology in the electronic information education environment. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948. Volume 28, May – 2024.

ЗУЛФИЯ МЎМИНОВА ШЕЪРЛАРИДА ВАТАН МАВЗУСИ

Салохиддинова Нигорахон Иномжоновна

Филология фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент в.б.

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY” HOTM. Андижон

4. Rag'batlantirish: rag'batlantirishga reklama strategiyalari, oila a'zolariga reklama va maxsus aksiyalar (chegirmalar yoki noyob takliflar) kiradi.

5. Kishilar: kishilar chakana savdoda mijozlar bilan o'zaro aloqada bo'lgan korporatsiya vakillariga (kadrlar pudratchilari yoki sheriklari) murojaat qiladilar. Ushbu vakillar tovar haqidagi savollarga javob berishlari yoki mahsulot ma'lumotlari, jumladan, mavjudligi va sotish to'lovlarini tasdiqlashlari mumkin. Ba'zi chakana savdo sozlamalarida (tekis ekranli televizorlarni sotish) kishilar shunchaki ko'rinadigan trafikni xaridorlarni sotib olishga aylantirish uchun javobgar bo'ladilar.

6. Taqdimot: taqdimot chakana savdoning tajribaviy tartibini anglatadi. Taqdimotda fon rasmi, chakana maydoni tartibi va estetika e'tiborga olinadi.

Xulosa shuki, chakana savdo foyda olish uchun iste'mol tovarlari yoki xizmatlarni xaridorlarga tarqatish kanallari orqali sotish jarayoni hisoblanadi. Chakana savdoda marketing ahamiyatiga, namunaviy misollariga, marketing tendensiyalariga va 6P bilan ifodalanadigan marketing birikmasiga ega bo'ladi. Ushbu savdoda marketing bevosita sotishga asoslangan bozor sifatida ko'rib chiqiladi. Marketingni amalga oshirish firma faoliyatiga ta'sir qiladi. Bu orqali marketing maqsadlari va rejalari tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Хасбулатова Б.М. Маркетинг торговой деятельности. Учебное пособие. - Махачкала: ДГИНХ, 2012. - с.18.
2. <https://www.geeksforgeeks.org/retail-marketing-meaning-importance-types-and-strategies/>

KULTUROLOGIK YONDASHUVDA MADANIY KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY QISMLARI

Abdurahmonova Sharofat Bahromali qizi
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
sharofatabdurahmonova@gmail.com

Ta'lim tizimida kulturologik yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning o'zga xalqlar madaniyati, turmush tarzi, urf-odat va an'analarini o'z xalqining kulturologiyasi bilan solishtirish asnosida o'zaro bog'liqlik va farqli jihatlarni o'zlashtirishi, ularni katta maydonda – keng ijtimoiy-tarixiy kontekstda o'rganish orqali badiiy yaratilarning tub mohiyatini darajasida idrok etishi va shu anglam vositasida borliqning nafis jozibasini his etish, bu orqali esa ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga yo'l ochishni ko'zda tutadi.

Kulturologiyani dialogik analiz qilish shaxsga olamni bir butun sifatida idrok etish, boshdan kechirish, tushunish; hozirgi, o'tmish va kelajak bilan bog'liqligini, ma'naviy madaniyat yaxlitligiga mansubligini anglash imkonini beradi. Mazkur funksiyalarni hisobga olgan holda madaniyatdagi muloqotning pedagogik texnologiyasiga alohida diqqat qaratish lozim. Bu bitta yoki bir nechta subyektkar o'rtasidagi muloqot emas, balki boshqalar – butun jamiyat bilan ma'nan birga yashash, ular bilan ma'lum bir madaniyatda ham, ushbu madaniyatning ta'sir doirasida ham birga yashashdir. “Adabiyot o'qituvchisining vazifasi – bu dialogni badiiy matnlar orqali tashkil etish va dialogik vaziyatni butun dialog jarayoni davomida saqlab turish, eng muhimi, uni o'quvchining ichki dialogiga o'tkazishdir” deya izohlaydi kulturolog olim V. Domanskiy.

Ushbu yondashuvni amaliyotga keng joriy qilishda o'qituvchi kasbiy layoqati bilan birgalikda kultural kompetensiya mohiyatini ham chuqur anglab olishi va kasbiy faoliyatida turli vaziyat va sharoitlarda undan oqilona foydalanish ilmini puxta egallagan bo'lishi lozim.

Mazkur kompetensiya adabiyot o'qituvchisidan o'rganilayotgan xalqning milliy va ijtimoiy-madaniy o'ziga xosligidan xabardor bo'lishligini ko'zda tutgani holda mazkur xalqning individual xususiyatlarni ocha bilishi hamda badiiy jozibasini o'quvchilarga yetkaza bilishiga qaratilgan pedagogik layoqatdir.

Medvedova madaniy kompetensiya tarkibini quyidagicha tasniflaydi:

1. Motivatsion-shaxsiy komponent. Bu o'qituvchining subyektiv pozitsiyasini, kasbiy-pedagogik mulohaza yuritish mahoratini, gumanitar fanlarni o'rganish jarayonida madaniyat va san'at asarlarini tushunish motivlarini anglash, o'quvchilarning aksiologik munosabatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

2. Kognitiv komponent. Bu psixologik-pedagogik bilimlar tizimi, maktab o'quvchilarini o'qitishda kulturologiyaning rolini tushunish, san'at sohasidagi bilim, ijodiy fikrlash qobiliyati, kulturologik yondashuvning mohiyatini tushunishga doir bilimlarni o'rgatishga qaratilgan.

3. Faoliyatga asoslangan komponent. Kulturologik yondashish aspektida innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, o'quv faoliyati jarayonida faollik ko'rsatish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

4. Kommunikativ komponent. O'quvchilarning madaniy asarlarni tushunish jarayonida pedagogik muloqotni tashkil etish, muloqot ko'nikmalarini egallash va kultural asarlar bo'yicha turli kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish qobiliyatini nazarda tutadi.

5. Emotsional-ijodiy komponent. Bu badiiy yaratiqqa doir ilhomning paydo bo'lishi, ta'limga kulturologik yondashish nuqtayi nazaridan ijodiy qobiliyatlarni, madaniyat va san'at asarlariga hissiy-emotsional munosabat, maktab

o‘quvchilarining o‘quv jarayonida emotsionallikning rolini tushunishi va ushbu qobiliyatni shakllantirishga qaratilgan.[B. 20].

“Kulturologik yondashuvdan foydalanish, - deydi kulturolog olim I.Xodyakova, - maktab o‘quvchilarini axloqiy va estetik tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, dunyoqarashini shakllantirish va shaxslik sifatlarining rivojlanishiga yo‘l ochadi”. Binobarin, kulturologik yondashuv badiiy adabiyotning madaniy jihatlarini ochish bilan bir qatorda kishilarning ma’naviy kultural qiyofasining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagogik faoliyat tizimida o‘qituvchining kognitiv baholash samaradorligining oshishiga xizmat qilibgina qolmay, balki o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorlik munosabatlarining birlashishiga, pedagogik jarayonda ma’naviy sifatning faolroq namoyon bo‘lishiga yo‘l ochadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, kulturologik yondashuvga quyidagicha izoh berish mumkin: Kulturologik yondashuv bu – o‘qituvchining dunyoqarashi, uning pedagogik voqelikni uslubiy tushunishi va uni o‘quvchilarga tuydirish mahorati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kasbiy shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatdir.

Kulturologik yondashuvdan foydalanish o‘z oldiga quyidagi talablarni maqsad qilib oladi:

- yuksak fazilatli shaxsni shakllantirish va kamol toptirish;
- o‘quvchilarni diyorimiz va butunjahon tarixiy tadrijida milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- o‘z milliy-madaniy o‘tmishini jahon xalqlari madaniy hayoti bilan birgalikda o‘rganish asnosida o‘quvchilarda tolerantlik va baynalminal ruhni shakllantirish;
- o‘z millatiga muhabbat ruhida tarbiyalash va madaniy o‘tmishi bilan faxrlanish hisini shakllantirishdan iborat.

Kulturologik yondashuv o‘quvchi kishining ijtimoiy-axloqiy munosabatlarda, xalqning turmush sharoiti va shu jamiyatga aloqador barcha sohalarda yuzaga keladigan deformatsiyalardan himoyalanih va oqilona chiqish mahoratini ham ifodalaydi. Chunonchi, kulturologiya, avvalo ijtimoiy tarbiyaning madaniyatga adekvat qilingan shakli bo‘lib, I. Lerner uni jamiyat bilan bog‘lab turadigan 4ta komponentini quyidagicha keltiradi:

1. Bilim.
2. Jamiyatga ma’lum bo‘lgan intellektual va amaliy faoliyat usullarini amalga oshirish tajribasi.
3. Ijodiy faoliyat tajribasi.
4. Odamlarnig dunyoga va bir-biriga bo‘lgan hissiy va qadriyatlarga asoslangan munosabatlari tajribasi.

Mazkur komponentlar go'yoki kulturologik yondashuvga kognitiv, kommunikativ, kreativ hamda emotsional aspektlar birligida qamrab olishi nuqtai nazardan tasnif qilinadi va bu sistemlashtirish jamiyatsiz mavjud emasligini ham alohida e'tirof etadi.

O'quvchilar dunyo adabiyoti bilan tanishish barobarida jahon xalqlarining milliy madaniyat xususiyatlarini umuminsoniy qadriyatlari bilan dialektik birlikda o'rganish orqali ularning dunyoga faol munosabati shakllanib boradi. Bu esa endilikda inson va u yaratgan madaniyatni kengroq va falsafiy tushunish zaruratini yuzaga chiqaradi. Kulturologik ta'limga izchil munosabatning mavjud emasligi mazkur yondashuv yaxlitligining bo'linishiga, umummilliy qadriyatlardan uzoqlashuvga sabab bo'ladi. Binobarin, kulturologik yondashuvning gnesologik, ijtimoiy, kognitiv funksiyalari bilan tanishish sohaning tizimlashuvi va integratsion faollashuvining keng ko'lamda amaliyotga joriy qilinishiga yo'l ochadi. "Kultural bilimlar orqali madaniy kontekstning ta'lim jarayoniga faol kiritilishi fandagi integratsion faoliyatning shakllanishi, qiyosiy tahlil qilish va kishilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmasining rivojlanishi va jadallashuviga imkon beradi". Bu yondashuvni insoniyatning eng yuksak yutuqlari majmuini amalda aks ettirish va baholash mahorati deya tushunish mubolag'a bo'lmaydi. Zotan, "madaniy komponent fanlararo sintezning bir qismi sifatida turli gumanitar bilimlarning uzviy integratsiyasi uchun sharoit yaratadi, o'quvchi shaxsining gumanitar tafakkurini rivojlantirishga va uning yaxlit kulturologiyasi shakllanishiga yordam beradi", deya ta'kidlaydi kulturolog olim L. Maxinko. Shuningdek, kulturologik yondashuv voqelikdagi barcha hodislarning semantik-funksional jihatini yoritibgina qolmay, ma'naviy sohada kishilarning axloqiy-tarbiyaviy fazilatlariga e'tibor qaratib, ta'limda o'qituvchi-o'quvchi munosabatlaridagi kultural qadriyatlarni sintez qilish va rivojlanishidagi faollashuv jarayonida o'zaro madaniy aloqalarni ham mustahkamlashuviga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Медведова В.В. Развитие культурологической компетенстности преподавателя русского языка и литературы в системе повышения квалификации. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Шуя. 2011.
2. Медведова В. Урок литературы в контексте культуроориентированного образования. Педагогическое образование в России. №3. 2006.
3. Махинько Л.Н. Системно- культурологические основы школьного краеведения (на материале Санкт-Петербурга). Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Санкт-Петербург. 1999.

4. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.
5. Доманский В. А. Культурологические основы изучения литературы в школе. Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. –Томск. 2000.

CHAKANA SAVDONI KONTENT TAHLIL QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Salayeva D.A.

Urganch davlat universiteti birinchi bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada chakana savdoni kontent tahlil qilishning ahamiyati, mazmuni, mavjud imkoniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: savdo, savdo korxonasi, tahlil, kontent tahlil, mahsulot, raqobatbardoshlik.

Ma’lumki, savdo korxonalari raqobatbardoshligi iste’molchilar talablariga javob beradigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyatiga bog‘liq. Ushbu qoidalarni marketing tadqiqotlari orqali aniqlash mumkin. Buning uchun korxonalarga o‘z faoliyatini rejalashtirish jarayonida noaniqlikni kamaytirish, tahlil qilinayotgan sektorning tuzilishi, tendensiyalari va istiqbollarni aniqlash, o‘rganilayotgan segmentdagi iste’molchilarning xohish-istaklarini aniqlash talab etiladi. Bozorda mahsulotni ilgari surishda eng samarali vositalarni tanlash, raqobatchilarga nisbatan afzalliklar va kamchiliklarni aniqlash, rejalar va dasturlarni amalga oshirish jarayonini nazorat qilishni ta’minlaydi [1]. Ushbu chora-tadbirlar kontent tahlil orqali amalga oshiriladi.

Kontent tahlil chakana savdo sohasidagi standart tadqiqot usuli bo‘lib, unda tahlil doirasi matn va kommunikativ aloqa shakli bo‘lib hisoblanadi. Mahalliy tadqiqotlarga ko‘ra, kontent tahlil aniqlangan muammolarni material ko‘rinishida mazmunli talqin qilish maqsadida uning tahlili o‘tkaziladi. Kontent tahlil mazmunan tuzilishi yoki mohiyati bo‘yicha o‘zgarmas ahamiyatga egadir. Ammo, ushbu tahlil tashqi tizimlashtirilmagan va tasodifiy tashkil etilgan usul sifatida mavjud bo‘lgan materiallarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Kontent tahlil usuli matn materialining xilma-xilligidan matn mazmuni mavhum modeliga o‘tishidan iborat bo‘ladi. Shu ma’noda, kontent tahlil tanlangan usullar sohasida qo‘llaniladigan eng mazmunli tadqiqot qoidalari sanaladi.

Chakana savdoda kontent tahlilning quyidagi keltirilgan asosiy turlari mavjuddir va ko'p qo'llaniladi [2]:

-miqdoriy kontent tahlili tadqiqotchi e'tiborini chakana savdoga oid xabar mazmuniga qaratib, so'zlar, mavzular va xabarlarni o'rganishga asoslanadi. Tanlangan unsurlarni tahlil qilishni rejalashtirganda ularning ma'nosini oldindan bilish va tadqiqotchining kutganiga muvofiq har bir kuzatuv natijasini aniqlay olish kerak. Amalda, ushbu turdagi kontent tahlilini o'tkazishda avvalo tadqiqotchi har bir kuzatuvni aniqlanishi va guruhga oid lug'at turini yaratishi kerak. Bu holatda muammo shundaki, tadqiqotchi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murojaatlar va ulardan foydalanish unsurlarini oldindan bilishi kerak. Buning uchun har bir foydalanishni baholash qoidalarining batafsil tizimi ishlab chiqilishi kerak. Ushbu vazifa tahlil qilinadigan chakana savdoga oid xabarlar turlarini sinovdan o'tkazish mustaqil baholash orqali hal qilinadi. Bu esa tadqiqotchilarning kuzatishlariga asoslanadi.

Chakana savdoga oid ma'lumotlar ijobiy yoki salbiy ma'noda asosiy havolalarga aniq baholashlarni kiritish zarurati bilan belgilanadi. Bir qator eslatmalar baholar ta'siriga qarab tartiblanishi kerak. Tadqiqotchiga subyektlarning his-tuyg'ulari va ularning ta'sirini aniqlay oladigan ko'rsatkichlar zarur bo'ladi. Chunki, kontent-tahlil texnikasidan foydalangan holda mutaxassislardan yuqori tayyorgarlikni talab qiladi. Ba'zi hollarda ular bir guruh mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Kontent tahlilni amalga oshirishda xabarlar mazmunini bildiruvchi so'zlar, mavzular va boshqa unsurlardan tashqari sifat yoki tarkibiy tahlil qilish imkonini beradigan boshqa birliklar mavjud bo'ladi. Bunda tadqiqotchini asosiy tahlil qiziqtiradi. Boshqa tomondan, xabarning shakli bilan bog'liq boshqa murakkabroq masalalar e'tiborga olinishi mumkin. Bunday tahlil natijasida kontentga yo'naltirilgan tadqiqotlarga qaraganda ancha ishonchli o'lchovlar olinadi, ammo natijada ular unchalik ahamiyatli hisoblanmaydi.

- sifatli kontent tahlili paytida tekshirilgan parametrlardagi o'lchovlar miqdoriy tahlilda talab qilinadigan batafsil va sinchkovlik bilan tekshirishdan farqli o'laroq, har bir xabarning mazmuniga ta'sir qiladi. Natijada, sifatli kontent tahlilini ishlab chiqish va o'tkazish oson bo'ladi. Shu bois, kontent tahliliga qaraganda arzonroq va ishonchliroq bo'ladi. Uning natijalari kamroq qoniqarli bo'lsa-da, xabarning to'liq yozuvidan ko'ra ko'proq ta'sirini ta'minlaydi. Ammo, aniq tadqiqot savoliga javob berishda ular ko'pincha etarli darajada ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Sifatli kontent tahlili empirik ijtimoiy tadqiqotning ilmiy usuli hisoblanadi.

Chakana savdoda kontent tahlili asosan elektron shaklda, ya'ni veb-saytga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu borada chakana savdo korxonasi veb-sayti

tahlili uning bozorda raqobatbardoshligini oshiradigan faoliyat qismi bo'lib qaraladi. Buning uchun savdo bozorining kontent tahlili qo'llaniladi. Ushbu marketing vositasi ikkilamchi manbalardan olingan ma'lumotlarni yig'ish hamda ular mazmunini sifat va miqdoriy tahlil qilishning rasmiylashtirilgan usulidan iborat bo'ladi. Usulning afzalliklari natijalarni statistik qayta ishlash imkoniyati va tahlilning yuqori obyektivligini o'z ichiga oladi [3]. Unga asosan, kontent tahlil chakana savdo korxonalarini faoliyatini sinchiklab o'rganish sifatida undan brend mashhurligi, raqobatchilar faolligi va maqsadli auditoriya manfaatlarini tahlil qilish uchun foydalaniladi.

Umuman olganda, chakana savdoni kontent tahlil qilishning maqsadi eng maqbul interfeys mezonlarini aniqlash va asosiy ishtirokchilar veb-saytini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar yaratish borasida bozor haqidagi ommaviy kommunikatsiya xabarlarida mavjud bo'lgan ikkilamchi ma'lumotlarni o'rganish hisoblanadi. Chakana savdo bozorining kontent tahlilini o'tkazish uchun tadqiqot obyektlari, ya'ni tovarlarning onlayn-do'konlari, jumladan ularning dastlabki tanlovi o'tkazildi. Tadqiqot davomida mahsulotlarning mavjudligi uchun mashhur internet-resurslari ko'rib chiqiladi. Bu esa kontent strategiya samaradorligini baholash va natijalarni yaxshilash uchun choralar ko'rish imkonini beradi. Kontent tahlilini o'tkazish uchun bevosita agentlik yoki xizmatni tanlash amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa shuki, chakana savdoni kontent tahlil qilish jarayonida ushbu sohaning muammolari aniqlanib, ularni tarkibiy tadqiq qilish imkoniyati yaratiladi. Internet saytlari asosida ma'lumotlarni o'rganish osonlashadi. Ya'ni, miqdoriy va sifat tahliliga asosan, turli saytlarni bir-biri bilan taqqoslash natijasida olingan ma'lumotlar korxonalar va raqobatchilarning internet-resurslariga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Bu esa maqbul interfeysning tendensiyalari va mezonlarini aniqlash imkonini beradi. Aniqlangan namuna asosida iste'molchilarni saqlab qolish va sonini ko'paytirish hamda saytni modernizatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Iste'molchilar ongida savdo korxonasining ijobiy imidji shakllanadi. Shu orqali mahsulotga nistaban raqobatbardoshlikning pasayishiga va bozordan chiqishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Жуков Б.М., Романов А.А., Басенко В.П. Маркетинг: учеб. пособие. - М., 2012. - с. 440.
2. <https://ru.wikipedia.org>
3. Минько Э.В., Карпова Н.В. Маркетинг: учеб. пособие. - М., 2012. – с. 351.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПОНИМАНИЯ БЛАГОСОСТОЯНИЯ

*Ахмедова Раъно Азиз кизи**Базовый докторант Института по изучению проблем молодежи
и подготовки перспективных кадров при Агентстве по делам молодежи**Телефон: +998 97 743 0566**E-mail: rn.akhmedova@gmail.com*

Аннотация. Данная статья представляет собой анализ различных концепций и подходов к пониманию понятия благосостояния. Рассмотрены различные подходы к определению понятия благосостояния, основываясь на работах ведущих экспертов в области социологии, экономики и психологии. Автор анализирует влияние различных факторов на уровень благосостояния индивида и общества в целом. Главная мысль статьи заключается в том, что концепция благосостояния является многофакторной и требует комплексного подхода к изучению.

Ключевые слова: благосостояние, теории и факторы благосостояния, общественное и индивидуальное благосостояние.

Известно, что человек – существо социальное. Исторически доказано, что люди объединялись в малые группы, постепенно разрастаясь общинами, городами и странами. Это в первую очередь помогало в вопросах безопасности, обеспечения и достижения, различных благ, формированию и сохранению культуры, традиций и языка. В свою очередь, данный процесс существует и по сей день. Более того, развивает изначальное стремление людей к благосостоянию в новых условиях.

Если определим благосостояние¹⁵, как обеспеченность населения страны, государства, социальной группы или класса, семьи, отдельной личности *материальными, финансовыми, социальными и духовными благами*, то необходимо глубже рассмотреть, благосостояние с точки зрения выражения системы показателей, характеризующих уровень жизни¹⁶.

Рассмотрим теории, способы измерения и достижения, благосостояние которых менялись в эпохах. Т. Кампанелла, Морелли подходили с социалистическо-утопистских подходов, где благосостояние видели в достижении всеобщего счастья, полной удовлетворенности посредством

¹⁵ Благосостояние // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907; Словарь русского языка: В 4-х томах / РАН, Институт лингвистических исследований; Под редакцией А. П. Евгеньевой. — 4-е издание, стер. — М.: Русский язык; Полиграфресурсы, 1999 год; Словари, энциклопедии: Словарь русского языка (МАС). Дата обращения: 12 октября 2021. Архивировано 4 января 2022 года.

¹⁶<https://dic.academic.ru/dic.nsf/es/9065/%D0%B1%D0%BB%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D1%81%D0%BE%D1%81%D1%82%D0%BE%D1%8F%D0%BD%D0%B8%D0%B5>

уравнивания всех людей в обществе. И. Бентам будучи утилитаристом, определял благосостояние удовольствием, где максимум счастья достигается через потребление в настоящее время, а не в будущем, которое достигается законодательством.

А. Смит исходил из капиталистической точки зрения и выдвигал идею связи благосостояния с созданием материальных благ посредством масштабного развития производства и накопление национального капитала. В идеях В. Парето, благосостояние достигается максимальных показателей, когда всякое изменение в распределении ресурсов может ухудшить благосостояние как минимум одного члена общества. Другими словами, каждый человек достигает максимизации полезности при определенном запасе исходных благ, интересы и выгоды в обществе взаимно уравниваются, и удовлетворение (благосостояние) общества в целом максимизируется.

Л. Вальрас, доказывая существование общего рыночного равновесия, также признавал возможность человеческого неравенства, указывая, что для установления экономической и моральной стабильности богатство общества должно быть справедливо распределено. В неоклассическом подходе, А.Пигу оценивает благосостояние общества в целом через благосостояние отдельных людей и основывается на удовлетворении жизни и удовлетворении потребностей, т.е. рост производства ведет к росту благосостояния.

Индивидуальное благосостояние включает не только полезность потребления, но и содержание труда, условия окружающей среды, отношения с другими людьми, положение в обществе, условия жизни, социальный порядок и безопасность. Социалистическая концепция благосостояния предполагает получение благ в зависимости от труда, а не от формы собственности или социального происхождения; К. Маркс рассматривал образование, интеллектуальное развитие и свободное время для общения как главные меры благосостояния.

Различные концептуализации того, как достигается благосостояние, оценивают методы его достижения. Это может происходить посредством стремления повысить свой личный статус или участие общества/государства в достижении общественного благосостояния. Однако принципиальная разница заключается в методе оценки и факторах, которые ее формулируют (достигаются).

Так, Г.А. Шкиренко выдвигает мнение, о сути общества, где общественное благосостояние не может быть достигнуто без индивидуального благосостояния, как и наоборот. Совместное проживание

людей и существование общества подразумевает взаимозависимость людей (следовательно, и благосостояние общества) и позиционирование общества в целом от каждого из его членов.

Согласно современной концепции, благосостояние зависит от степени удовлетворения потребностей человека и его семьи материальными и нематериальными благами.

В качестве заключения, отметим, что понятие «благосостояние» - это многофакторное понятие, требующий комплексного подхода к его пониманию. Согласно проведенному теоретическому анализу, многие ученые сходятся на мнении о том, что благосостояние – это наличие "благостного" состояния или удовлетворенности; состоянием души, возможностью реализовать свои желания, способности и потребности. А также, наличие чувства безопасности (в жизни, здоровье, финансовом достатке и уверенности в будущем); и материальных благ.

BIRJA FAOLIYATINI RIVOJLANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ismailov Farrux Rustam o‘g‘li

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot kafedراسi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada birja faoliyatini rivojlanishining mazmuni, ahamiyati, zarurligi, mavjud imkoniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье описаны содержание, значение, необходимость, имеющиеся возможности и особенности развития фондового рынка.

Abstract. This article describes the content, importance, necessity, available opportunities and specific features of the development of the stock market.

Kalit so‘zlar: birja, savdo, operatsiya, bitim, tovar.

Ключевые слова: обмен, торговля, сделка, сделка, товар.

Key words: exchange, trade, transaction, transaction, commodity.

Ma’lumki, mamlakatimizda iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish orqali savdo aloqalarini keng rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 12-sentabrdagi “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-375-son qonuni [1] qabul qilindi. Unga asosan, mamlakatimizda birjalar tashkil etilib, ularning faoliyati bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar amalga oshiriladi. Chunki, birja faoliyati - talab va taklif o‘rtasidagi real munosabatlarni aniqlash va ushbu holatlarni hisobga olgan holda narxlarni

shakllantirish asosida tovarlarning ulgurji bozorini yaratishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Birja tovarlar, valyutalar, qimmatli qog'ozlar, hosilalar va boshqa bozor vositalari savdosining tashkilotchisidir. Savdo standart shartnomalar yoki lotlar yordamida amalga oshiriladi, ularning hajmi esa birjaga oid me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Birja - moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun platforma hisoblanadi [2]. U orqali valyutalar, qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho metallar va boshqa aktivlar bilan savdo tashkil qilinadi hamda ushbu aktivlarning xaridorlari va sotuvchilari o'rtasida bir-biri bilan o'zaro savdo qilishlari ta'minlanadi. Ilgari birjalar ma'lum bir joylar bo'lgan. Masalan, bino yoki shahar maydoni - bu yerda kishilar shaxsan kelib, savdo-sotiqni og'zaki tartibda muhokama qilishgan. Keyinchalik, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan savdo shakli ham o'zgardi. Ya'ni, barcha faoliyat onlayn rejimda amalga oshiriladi, kelishuvlar internet orqali masofadan yozib olinadi va birjalar ba'zan jismoniy ko'rinishga ega bo'lmay, faqat elektron shaklda mavjud hisoblanadi.

Birja savdosi oddiy mahalliy bozor va yarmarkadan kelib chiqqan [3]. Unga asosan, kompyuterlashtirish davrigacha tomonlar bitimlar bo'yicha og'zaki kelishib olganlar. Hozirgi kunda esa savdo ixtisoslashtirilgan dasturlardan foydalangan holda elektron shaklda amalga oshiriladi. Birjani ishtirokchilari - brokerlar o'z manfaatlarini yoki mijozlari manfaatlarini ko'zlab, savdo tizimlariga birja tovarlarini sotib olish yoki sotish bo'yicha buyurtmalar beradilar. Ushbu takliflar boshqa savdogarlarning qarshi takliflari bilan qondiriladi. Aniqroq qilib aytganda, birjada amalga oshirilgan bitimlar hisobi yuritiladi, hisob-kitoblar kliring shaklida amalga oshiriladi, tashkil qilinadi va kafolatlanadi hamda to'lovga nisbatan yetkazib berishning o'zaro ta'sir mexanizmi ta'minlanadi.

Birjada sotiladigan va sotib olinadigan aktivlarning turiga qarab, valyuta, fond, tovar, fyuchers va boshqa birjalar mavjud bo'ladi. Ammo universal platformalar ham mavjud bo'lib, ular asosida turli moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar amalga oshiriladi. Birja bozoridagi moliyaviy operatsiyalar to'liq harakatlar bo'lib, unda investitsiyalar va moliyaviy vositalarni standartlar va qabul qilingan qoidalarga muvofiq joylashtirish va muomalaga kiritish bilan bog'liq maqsadlar ko'zlanadi. Valyuta bozorining ishlash qoidalari birja hamjamiyati hamda davlat organlari tomonidan mahalliy va xorijiy tajriba, shuningdek, o'rnatilgan an'ana va milliy urf-odatlar asosida belgilanadi. Shu munosabat bilan birja bozorida amalga oshiriladigan yuridik ahamiyatga ega harakatlar umume'tirof etilgan texnika va qoidalar, obyektiv kuchga ega qonunlar asosida shakllangan huquqiy me'yorlardan foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, birjani ishlashi uchun zamonaviy valyuta bozori jadal rivojlanayotgan tuzilma bo‘lib hisoblanadi. Shu munosabat bilan birja bozori imkoniyatlari va tuzilishi haqidagi bilimlar moliya mutaxassislari, emitent va investorlar, tadbirkorlar, yuridik va jismoniy shaxslar uchun alohida qiziqish uyg‘otadi. Ushbu holat ijobiy salohiyatni to‘plagan holda moddiy ishlab chiqarish sohasini faol rivojlantiradigan iqtisodiyot sohasi uchun xos bo‘lib hisoblanadi. Birjalarda ayirboshlash jarayonlari ishtirokchilarining pul oqimlari harakati orqali ular moliyaviy samaraga erishadilar. Natijada, shu orqali ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishni ta‘minlaydilar. Bu borada fond bozori mazkur imkoniyatlarni taqdim etadi. Fond birjasi o‘z maqsad va vazifalarini belgilashi va turli moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarni tashkil etadi. Shu bois, birja biznesi va moliya-kredit munosabatlarini o‘rganish va amaliy qo‘llash obyektiga aylanadi.

Bugungi kunga kelib, birjalar orqali birja savdosini tashkil etish, aktivlar kotirovkalarini o‘rnatish, standart shartnomalarni ishlab chiqish, savdo ishtirokchilariga kafolatlar berish, yuzaga keladigan nizolarni hal qilish kabi ishlar bajariladi. Ushbu imkoniyatlar birjalarning bajaradigan vazifalari orqali quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi:

- birja savdolarini tashkil etish;
- savdo qoidalari, jumladan birja orqali sotiladigan tovarlar uchun standartlarni belgilash;
- namunaviy shartnomalarni ishlab chiqish;
- kotirovka;
- nizolarni hal qilish;
- axborot faoliyati;
- savdo ishtirokchilari tomonidan majburiyatlarni bajarish uchun kafolatlar berish.

Xulosa shuki, birja qimmatli qog‘ozlar yoki tovarlar bilan bitimlar tuzish uchun savdogarlar, vositachilar va birja brokerlarining ma‘lum soatlarda yig‘iladigan joyi yoki binosi bo‘lib hisoblanadi. Birjalar orqali tuziladigan har bir bitimdan komissiya olinadi. Bu esa brokerlar daromadining asosiy manbai бўлиб ҳисобланади. Birja tarkibida a‘zolik to‘lovlari, savdoga kirish uchun to‘lovlar va birja ma‘lumotlarini sotish kabilar hisobga olinadi. Shu orqali birja faoliyatini uzluksiz tarzda rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 12-sentabrdagi “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-375-son qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/2462666>
2. <https://fingramota.by/ru/guide/practical/birja?cookies=true>

3. Биржевое дело: учебник для бакалавров. под ред. Л.А.Чалдаевой. - М.: Издательство Юрайт, 2014. - с. 17.

SANOAT KORXONALARINING SOTUV TIZIMIDA MARKETING STRATEGIYALARINING QO'LLANISH TARAQQIYOTI

Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi

Xalqaro Nordik Universiteti 1-bosqich doktoranti

+998888604140

dilfuz.uz@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi muallif marketing strategiyasini ko'rib chiqadi, maqsadli bozorlarni jalb qilish va tashkilotning maqsadlariga erishish uchun marketing tizimini qanday shakllantirishni aniqlaydi. Marketing strategiyasi bo'yicha qarorlar mahsulotni rejalashtirish, sotish, reklama va narxga qaratiladi. Strategiya ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini bozor konyunkturasi va korxonaning imkoniyatlariga to'liq mos ravishda amalga oshirish maqsadida shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: marketing strategiyasi, bozor, raqobatchilar, savdo, reklama.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi biznesdagi global iqtisodiy va moliyaviy inqiroz oqibatlaridan kelib chiqqan murakkab va qarama-qarshi jarayonlarning kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi. Cheklangan moliyaviy resurslar va tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish muammolarining tobora murakkablashib borishi sharoitida har bir alohida xo'jalik sub'ekti rivojlanishining strategik jihatlarini ishlab chiqish ob'ektiv zarurat tug'iladi.

So'nggi o'n yilliklarda strategiyalar mavzusi turli tadqiqotlarda keng ishlab chiqildi. Biroq, umuman olganda strategiya va xususan marketing strategiyasining umume'tirof etilgan kontsepsiyasi hali ham mavjud emas, buning natijasida tadqiqotchilar mavjud ta'riflarga o'zlarining ko'plab modifikatsiyalarini taklif qilishadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ushbu masala bo'yicha ishlarini o'rganish ushbu kontsepsiya asosidagi asosiy g'oyani aniqlash imkonini berdi.

Korxonaning strategiyasi - bu kompaniyaning bozordagi mavqeini mustahkamlashi va global maqsadlarga erishishni ta'minlashi kerak bo'lgan biznes faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydigan o'zaro bog'liq qarorlar to'plami.

Korxonaning strategiyasi vaqt funksiyasi emas, balki yo'nalish funksiyasidir. Strategik reja korxonaga bir necha yillar davomida ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar va kuchlarni tavsiflaydi, shuningdek, ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni ko'rsatgan holda uzoq muddatli maqsadlar va marketing strategiyalarini o'z ichiga oladi.

Mavjud resurslarga asoslanib, kompaniya uchta alternativadan asosiy yo'nalishni tanlaydi:

1. Biznesni rivojlantirish (tajovuzkor)
2. Status-kvoni saqlab qolish (mudofaa)
3. Faoliyatni qisqartirish (parvarish, tugatish)

Marketing strategiyalari marketing maqsadlariga erishish uchun harakat qilish usulini ifodalaydi. Korxonada uchta darajada ishlab chiqilgan marketing strategiyalari mavjud:

- Korporativ
- Funktsional
- Instrumental

Korporativ marketing strategiyalari bozor bilan o'zaro ta'sir qilish usulini, bozor ehtiyojlarini qondirish va korxonada salohiyatini uning talablariga muvofiqlashtirish uchun korxonada resurslaridan yaxshiroq foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Ular tadbirkorlik faoliyati hajmini oshirish, bozor talabini qondirishga qaratilgan sa'y-harakatlar, faoliyatning yangi yo'nalishlarini yaratish, iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini chuqurroq o'rganish uchun korxonada xodimlarining tashabbuskorligi va ijodkorligini rag'batlantirish jarayoni bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan. va boshqalar.

Raqobat strategiyalari potentsial iste'molchilarni ko'proq jalb qilish nuqtai nazaridan kompaniya bozorda qanday raqobatdosh ustunlikni ta'minlashi mumkinligini va raqobatchilarga nisbatan qanday siyosatni tanlashni belgilaydi.

O'sish strategiyalari bozor talablariga yaxshiroq javob berish uchun korxonada qaysi yo'nalishda rivojlanishi kerakligi, shuningdek, buning uchun o'z resurslari etarlimi yoki tashqi xaridlarga borish va uni diversifikatsiya qilish kerakmi degan savollarga javob berishga imkon beradi.

Portfel strategiyalari bozor ehtiyojlarini qondirish va har bir sohaga investitsiyalarni amalga oshirishdagi o'rnini va roli nuqtai nazaridan korxonada faoliyatining turli sohalarini boshqarish masalalarini samarali hal qilish imkonini beradi.

Funksional marketing strategiyalari korxonada maqsadli bozorlarni tanlash va ular uchun maxsus marketing harakatlari majmuasini ishlab chiqish imkonini beruvchi asosiy marketing strategiyalaridir.

Asosiy raqobat strategiyasining maqsadi bozorda raqobatdosh ustunlikka erishish, o'z mijozlarini (sodiq mijozlar doirasini) yaratish yoki yaratilgan raqobatdosh ustunlikni saqlab qolish uchun himoya choralarini ko'rishdir.

Bundan tashqari, raqobat strategiyasi kompaniyaning kelajakdagi raqobatbardoshligi va bozordagi mavqei bog'liq bo'lgan vaziyatga va uzoq

muddatli harakatlarga zudlik bilan munosabatda bo'lish uchun qisqa muddatli taktik harakatlarni ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda uning xizmatlariga talabning ortishi va raqobatning yuqori darajasi bilan ajralib turadigan korxonaga uchun marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu holat ko'p jihatdan aholi turmush darajasining oshishi va uning daromadlarining o'sishi bilan bog'liq.

Maqolada olib borilgan nazariy tadqiqotlar asosida "marketing strategiyasi" tushunchasining ta'rifi ishlab chiqilgan bo'lib, u korxonaga maqsadlariga erishish va raqobatbardosh ustunliklarni qo'lga kiritishga yordam beradigan marketing boshqaruvi qarorlari to'plami sifatida tushuniladi, iste'molchi uchun qiymat va uning resurslarining optimal muvozanatini saqlashdir.

Ko'rib turganingizdek, strategiyaning asosini har bir tashkilot oldida turgan maqsadga erishishga qaratilgan boshqaruv qarorlari tashkil etadi. Shu bilan birga, noyob qiymatni yaratish korxonaga tegishli bozor mavqeini egallash va uni saqlab qolish imkonini beradi, bu esa unga bozorda raqobatdosh ustunlikni ta'minlaydi. Nihoyat, bunday afzalliklarning muhim tarkibiy qismi tegishli resurslarning mavjudligi va ulardan samarali foydalanishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Данько Т.П. (2005) Количественные методы анализа в маркетинге / Под ред. Т.П. Данько, И.И. Скоробогатых. – СПб.: Питер, – 384 с
2. Sayudin, S., Ningsih, W., Maulani, I. E., & Herdianto, T. (2023). Analysis of Product Marketing Strategies in Small and Medium Industries. *American Journal of Economic and Management Business (AJEMB)*, 2(3), 94-98.
3. Opute, A. P. (2020). Small and medium enterprises marketing: Innovation and sustainable economic growth perspective. In *Entrepreneurship marketing* (pp. 13-30). Routledge.
4. Lubis, A., Purike, E., Stiadi, M., Judijanto, L., & Tobing, F. (2023). The triad of marketing success: product innovation, customer engagement, and market penetration. *International Journal of Economic Literature*, 1(3), 245-257.

MA'NAVIY MAKONNI YARATISHNING MA'FIRIY ASOSLARI*Mamatqulov Eldor Safarovich**Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi ma'naviy makonning asosiy ma'zmun - mohiyati hamda mamlakatimizda yangi ma'naviy makonni tashkil etishning ma'rifiy asoslari borasida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ma'rifat, madaniyat, ma'naviy makon, ajdodlar merosi, Yangi O'zbekiston-ma'rifatli jamiyat.

Kirish. Mamlakatimizda inson qadri uchun degan ezgu tamoyil asosida bugungi kunda barcha sohalarda tub sifat o'zgarishlari amalga oshirilmoqda. Bu ayniqsa ma'naviyat sohasida ham yaqqol namoyon bo'lib borayotganligini alohida qayd etib o'tish joiz. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining kengaytirilgan majlisida: "Ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi kerak", – deganda juda to'g'ri ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, ma'naviyat jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi, uning jon tomiri hisoblanadi. Har bir xalq o'z ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblangan qadriyatlari, urf-odatlari allomalarining merosiga sodiqligi bilangina rivojlanishi mumkin. Buni dunyoning son-sanoqsiz taraqqiy etgan davlatlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Yurtboshimizning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida yangi ma'naviy makon, uning mazmun-mohiyati, ma'rifiy asoslari borasida ko'plab foydali mulohazalar keltirilgan. Jumladan, yangi ma'naviy makonni yaratishning xalqimiz dunyoqarashi, ongu shuuriga chambarchas bog'liq ekanligi, uni barpo etishda amal qilinishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarga alohida urg'u berilgan. Xususan, yangi ma'naviy makonning ma'rifiy asoslarini barpo etish, ularni mustahkamlash uchun bajarilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Bugungi globallashuv davrida ommaviy madaniyat, din niqobi ostidagi radikal g'oyalar ma'naviy jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu kabi axborot xurujlari, mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda ma'naviy merosni asrab-avaylashga, uni bu kabi tahdidlardan saqlab qolishga erishish har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Buning uchun allomalarning boy ma'naviy merosini o'rganish, ularni xalqimiz orasida keng targ'ib va tashviq etish, ushbu ibratli hikmatlar bilan mafkuraviy immunitetni oshirish zarur.

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, yurtimiz azal-azaldan ulug' mutafakkirlar, allomalar, shoiru fuzalolar yurti bo'lib kelgan. IX-XII asrlarda sodir bo'lgan birinchi Sharq Renessansi – Uyg'onish davrining tub asoslarini ham

yurtimizdan yetishib chiqqan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Imom Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Mansur Moturidiy kabi bobolarimiz barpo etganlar. Bundan tashqari bu mintaqada Termiziy, Samarqandiy, Nasafiy, Keshiy, Shoshiy, Xorazmiy va boshqa nisbalar bilan ijod etgan ko'p sonli mutafakkir zotlar yashab ijod etganlar. Ushbu allomalarning har birlari yoshlar ma'naviyatini yuksaltiruvchi, ularda vatanga muhabbat, yurtga sadoqat tuyg'ularini shakllantiruvchi bebaho asarlar yozganlar. Jumladan, Muso Xorazmiy tomonidan yaratilgan algoritmlar keying davrda kompyuterlar va axborot-kommunikatsiya vositalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Imom Buxoriy va Imom Termiziy kabi yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar esa o'z davridagi turli adashgan oqimlarga raddiyalar berish, ularning jamiyat ma'naviy tizimiga zarar yetkazishlarining oldini olish borasida samarali faoliyat olib borganlar. Bugungi kunda 2 milliardga yaqin musulmonlar faqatgina oltita hadis kitobini ishonchli deb tan oladilar. Imom Buxoriyning "al-Jome as-sahih", Imom Termiziyning "Sunan Termiziy" kabi asarlari "Sihohi sitta" deb ataluvchi mana shu 6 ishonchli hadis to'plamlari tarkibiga kiradigan mo'tabar manbalar qatoriga kiradi. O'z navbatida ushbu asarlar o'z davridagi to'qima hadislar ishlab chiquvchi turli radikal oqimlarga raddiya berishda nihoyatda ishonchli manbalardan hisoblanadi. Bu asarlarni tadqiq etish, sharh va tarjimasini xalqimizga taqdim etish o'z navbatida bugungi globallashuv davrida juda muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yangi ma'naviy makonning ma'rifiy asoslarini barpo etishda shubhasiz, Ibn Sino bobomiz ma'naviy merosining o'rni beqiyosdir. "Shayxur rais" nomi bilan ulug'lanadigan ushbu alloma butun dunyoda mohir tabib sifatida mashhurdir. Shu bilan bir qatorda Ibn Sino ma'naviy tarbiyaga xizmat qiluvchi, jamiyatning ma'naviy tizimini tartibga keltiruvchi durdona asarlar ham yozganligini e'tirof etish joiz. Jumladan, alloma qalamga mansub "Tadbirul manzil" risolasi ayni shu maqsadlarga xizmat qiluvchi muhim manbalardan hisoblanadi. Alloma mazkur asarda oila, uning shaxs ma'naviy kamolotidagi ahamiyati, ma'naviy tarbiyani shakllantirish yo'l-yo'riqlari borasida muhim tavsiyalar berganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib yurtboshimzning bevosita tashabbusi bilan yangi ma'naviy makonni yaratishning ma'rifiy, huquqiy asoslarini yaratish borasida samarali ishlar amalga oshirilganligini qayd etishimiz joiz. Jumladan, Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni tizimdagi islohotlarning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2774-son "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 28-avgustdagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 16-iyuldagi PQ-5186-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari soha rivoji yo'lidagi ma'rifiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizda ma'naviyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi yangi tajribalardan biri - allomalar merosini o'rganishga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatining yo'lga qo'yilganligidir. O'tgan qisqa davr mobaynida ushbu muassasalar tom ma'noda ma'naviyat targ'ibotchi bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan Surxondaryo viloyati Termiz shahrida tashkil etilgan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi o'zining yetti yillik qisqa faoliyati davomida yurtimizdan yetishib chiqqan mutafakkir zotlar, faylasuflarning boy ma'naviy merosini targ'ib etishga qaratilgan 100 ga yaqin kitoblar, risolalar, xalqchil asarlar nashr etdi. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident Farmonida allomalar merosini yoshlarimizga, yurtdoshlarimizga xalqchil tilda yetkazib berish alohida maqsad sifatida belgilab berilgan edi. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda bugungi kunda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida 30 dan ziyod termiziy allomalarning boy ilmiy-ma'rifiy faoliyatini o'zida qamragan xalqchil risolalar tayyorlanib, xalqimizga yetkazildi. Bundan tashqari, kibermakonda paydo bo'layotgan turli axborot xurujlari, mafkuraviy tahdidlarning oldini olish maqsadida "Internet madaniyatining 10 qoidasi", sog'lom e'tiqod asoslarini shakllantirishga qaratilgan "Sog'lom e'tiqod asoslari" nomli risolalar ham nashr etildi. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot-markazi tomonidan Imom Buxoriy bobomizning boy ma'naviy merosini o'rganish borasida samarali faoliyat olib borilayotganligini alohida qayd etib o'tishimiz joiz.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

- Ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan ma'naviyatga aloqador fanlarni sifat jihatidan takomillashtirish, sohaga malakali kadrlarni jalb etish lozim;
- Kibermakonda yuzaga kelayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olishga qaratilgan fan dasturlarini uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etish maqsadga muvofiq. Bu jarayon bog'cha, maktab, oliy ta'lim tizimini qamrab olishi lozim;

•Allomalarimizning ma'naviy merosini tadqiq etishga qaratilgan turli loyihalar, dasturlar, o'quv kurslarini joriy etish, ularda faol ishtirok etganlarni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish kerak.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy sohadagi islohotlarning samarasi jamiyat dunyoqarashining unga qay darajada mos kelishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan yosh avlodning ma'naviy qiyofasini yuksaltirish, ularni milliy qadriyatlarga muvofiq holda tarbiyalash bugungi kundagi ma'naviy tizimdagi islohotlarning samarasini belgilovchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi [Matn] / – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli farmoni. // Xalq so'zi, 2022-yil, 28-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5040-sonli qarori. // Xalq so'zi, 2021-yil, 27-mart.
4. Falsafa qisqacha izohli lug'at. – Toshkent: Sharq, 2004. – 320 b.
5. Falsafa: qomusiy lug'at (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov) – Toshkent: “Sharq” nashriyot–matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Bosh tahririyati, 2004. – 495 b.
6. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 313 b.

ZIYO GO'KALPNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Xamdamov Erkin Ibodullayevich

*Toshkent viloyati Parkent tumani 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
direktori*

Tel.: +99899 517-34-87

e-mail: hamdamoverkin5@gmail.com

Orcid: 0009-0003-0761-964X

Annotatsiya. Mazkur maqola zamonaviy Turkiya ijtimoiy mafkurasining shakllanishiga katta xissa qo'shgan, jamiyat uchun zarur g'oyalarni targ'ib etishga uringan mashhur turk shoiri, faylafusi va mashhur jamiyatshunosi, davlat arbobi Mehmet Ziygo Go'kalp ilmiy-falsafiy merosini yoritishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Ziygo Go'kalp, turkchilik, pozitivizm, jamiyat, ijtimoiy tamoyillar, davlat, siyosat.

Mehmet Ziyó Go'kalp 1876-yil, 23-mart kuni Diyorbakrning Chermek mavzesidagi mahalliy gazetada ishlovchi Tefvik Beyning xonadonida dunyoga keldi. Turklar tili bilan aytganda, "turk kishisini" jamiyatshunoslik bilan tanishtirgan kishilardan biri, bu Ziyó Go'kalp sanaladi. U turkchilik oqimining eng buyuk yetakchisi sifatida turk ma'naviyati va siyosatiga katta ta'sir ko'rsatgan shoir, mutafakkir, siyosatchi va jamiyatshunos, deb bemalol ayta olamiz. U turkchilik, "Turkiy olam birligi" g'oyalarinig asoschisi, barcha turk xalqi milliy-ozodlik harakatlarining g'oyaviy rahnamolaridan biridir. Ziyó Go'kalpni taniqli zamondoshimiz turk faylasufi Doktor Ibrohim Kafesh o'g'li shunday deb ta'riflagan: "Hozirgi Turkiya ufqlarida ikki bayroq: Otaturk va Ziyó Go'kalp har doim balqib-to'lg'anib turadi"¹⁷; "Hozirgi zamon va inqilobchi Turkiyasining "g'oyaviy-ma'naviy" me'mori Ziyó Go'kalpdir"¹⁸.

Ziyó Go'kalp yoshligidan boshlab, sultonlik tuzumi, o'rta asrchilik bilan kurashga bel bog'lagan. U Turkiyada demokratik tuzum o'rnatish, yevropacha demokratik taraqqiyot yo'liga olib chiqish uchun kurashga bel bog'lagan, butun umri bo'yi kurash olib borgan. Ilk ta'limni Diyorbakir maktablaridan, islom haqidagi lik bilimlarni esa, islom huquqidan habardor bo'lgan amakisidan oldi. 19 yoshida Istanbulga keldi va Baytar Maktabiga (Veterinariya kolleji) xujjat topshirdi.¹⁹ Keyinchalik Yosh turklarning qarashlaridan ilhomlangan Go'kalp, 1885-yilda Istanbulda mashhur bo'lgan tashkilot Ittihad va Taraqqiyot jamiyatiga a'zo bo'ldi. 1898-yilda qamoqqa olindi.

Mahbuslik bir yildan so'ng tugab, u tug'ulib o'sgan shahriga surgun qilindi. U amakisining vasiyatiga ko'ra, uning qizi Vejuhga uylandi. Undan Sedat ismli bir o'g'il va Shehina, Hurriyat, Turkan ismli uch qiz ko'rdi. Bu yillarda Parijda surgunda bo'lgan Yosh Turkklar fransuz jamiyatshunos sotsiologlaridan juda qattiq ta'sirlanishgan edi.

Ziyó Go'kalp, Yosh Turklardan keyin, 1908-yilda Ittihad va Taraqqiyot firqasining Diyorbakirdagi yetakchisiga aylandi²⁰. Bir yildan so'ng, firqaning

Selanikdagi markaziy hayyat uyi tayinlandi. Go'kalpga partiyaning xususiyatini aholiga tushuntirish va yoshlarni partiyaga jalb qilish vazifasi yuklatildi. 1915yilda Istanbul Universitetida Ziyó Go'kalp birinchi jamiyatshunos (sotsiolog) bo'yicha professor bo'ldi.²¹ U Istanbulni Turkiyadagi sotsiologik ishlari va faoliyati uchun markaz holiga keltirar ekan, o'z faoliyatini 1919

¹⁷ Ziyó Gokalp, Turkchililik asoslari.(turkchadan A.Zohidiy tarjimasini)T.:GFNTI. 1994 –b. 4.

¹⁸ O'sha asar.

¹⁹ Alaaddin Korkmaz Ziya Go'kalp aksiyonu mesrutiyet ve cumhuriyet uzerindeki tesirleri.T.: 2000. –B. 12.

²⁰ Hasan Ali, "Mütefekkir Gökalp'ın En Büyük Hizmetleri", Milli Mecmua Ziya Gökalp Nüshası, Teçrinisani 1340(1924), -B.128.

²¹ Alaaddin Korkmaz Ziya Go'kalp aksiyonu mesrutiyet ve cumhuriyet uzerindeki tesirleri.T.: 2000. –B. 20.

³³ Tuncay.Ö. Türk Milletinin Büyük Önderi Atatürk. Ankara.1998. –B. 22.

yilgacha Adabiyot fakultetida davom ettirdi. Birinchi Jahon urushida Usmonli davlatini mag'lubiyatidan so'ng, hamma davlat mansablaridan olindi. 1919-yil Universitetda inglizlar tomonidan qo'lga olinadi. To'rt oy mahkamada so'roqlanib, keyinchalik hamfikrlari bilan birgalikda Maltaga surgun qilingan. Surgunda bo'lsada hamfikrlarini topib siyosat va falsafadan dars bergan. Go'kalp 1921-yilda Otaturkning eng yaqin tarafdorlari sifatida Diyorbakirga qaytarildi va milliy yetakchilarga yo'l ko'rsatish maqsadi bo'lgan jamiyatshunoslikka oid maqolalar nashr qiladigan bir kichik majmuaning mudiri qilib tayinlandi.³³ 1922-yilda Anqarada Madaniyat va Jamoat ishlari vazirligiga mudir bo'lib tayinlandi va u yerda uning mashhur asari "Turkchilikning asoslari" dunyoga keldi. 1923-avgust oyida ikkinchi chaqiriq Turkiyaning Buyuk Millat Majlisida Ziyo Go'kalp, Otaturk tomonidan Diyorbakirning vakili sifatida tayinlandi. Anqarada joylashgan Ziyo Go'kalp, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bilan shug'ullanib, dunyo klassik durdonalarini tarjima qilish bilan mashg'ul bo'ldi.

Bu davrlarda Turk jamiyati uchun eng ahamiyatlisi va kuchli ta'siriga egasi "pozitivizm" oqimi bo'ldi. Turkiyaga pozitivizm dastlab, to'g'ridan-to'g'ri falsafiy oqim sifatida kirib kelmadi. G'arbdan keltirilgan adabiyotlar, g'arb faylasuflarining tarjima qilingan asarlari, muhojir ziyolilar, fransuz darsliklari asosida turklarning ijtimoiy hayotiga singa boshladi. Ijtimoiy harakatlarda, xalq hayotida, fan, san'at sohasida pozitivizmning ta'siri yaqqol ko'rinib qoldi. Turk pozitivizm namoyandalari yetishib chiqdi: Ahmet Riza, Husayn Jahit, Tefvik Fikret, Beshir Fuad, Ahmet Shuayb, Salih Zekil va boshqalardir.²² Ularning qarashlarida klassik pozitivizmning g'oyalari aks etgan edi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida mamlakatda mavjud tuzumni o'zgartirishga bo'lgan barcha saiy-harakatlarda pozitivizm mafkura rolini o'ynadi. Shuning uchun turk ziyolilarining qarashlarida G'arb falsafasining ta'siri kuchayib bordi. Ularda g'arbonsa madaniyat, tafakkur va ijtimoiy fikr shakllandi. Turk ma'rifatparvarlarini, asosan, fransuz madaniyati, ilm-fan yutuqlari ilhomlantirgan edi. Ular mamlakatda qilinishi kerak bo'lgan o'zgarishlarida pozitivist faylasuflarning ta'limotlarini g'oyaviy manba qilib oldilar. Mamlakatda o'tkazilgan islohotda fransuz ijtimoiy hayoti model qilib olindi. Natijada xalqning hayotida, mafkuraviy harakatlarda, ijtimoiy hayotda, fan, san'at sohasida pozitivizmning ta'siri yaqqol ko'rinib qoldi. Ziyo Go'kalpni ham aynan shu jamiyat ulg'aytirdi. U ham Fransuz adabiyoti va ijtimoiy fikr rivojidan ilhomlangan²³. G'arb dunyosi falsafa va jamiyatshunosligiga keyingi uch-to'rt asr mobaynida mislsiz e'tibor berib va o'z hayotlarini shu fanlarning yutuqlari asosiga

²² <http://www.egitim.aku.edu.tr>. Suleyman Karatas, Osmanli egitim sisteminde batililasma

²³ Hasan Ali, "Mutefekkir Gokalp'in En Buyuk Hizmetleri", Milli Mecmua Ziya Gokalp Nushasi, Teçrinisani 1340(1924), -B.48.

qurib, hayratomuz taraqqiyotga erishdi. Bugungi kunda ham yangidan yangi taraqqiyot yo'llari va imkoniyatlarini ochmoqdalar.

XX asrdan boshlab inson muammosi, insonning jamiyatdagi o'rni, mavjudlik masalalari falsafada bosh muammo sifatida ko'tarila boshlandi. XX asrda bo'lib o'tgan bunday voqealar turk ijtimoiy fikriga ham oz tasirini ko'rsatdi. Yozuvchilar o'rtasida real voqelikni yozishdan ko'ra borliqni, inson hayotini va qadrini ko'rsatib berishga harakat kuchaydi. Go'kalp ham ma'na shu g'oyalari bilan yo'g'rilgan falsafiy asarlar yozib qoldirdi. U umri davomida bir qancha siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan asarlar, yosh turklarni ilhomlantiradigan jo'shqin she'rlar yozdi.

Turk dunyo qarashining eng buyuk vakillaridan, jamiyatshunos va faylasuf Ziyó Go'kalp fikrlarini bayon qilish uchun o'zining ko'plab maqola, she'r, doston, masal kabi janrlarda bir qancha asarlar yozgan. Sakson besh yildan keyin kitob holda nashr qilingan Falsafa Darslari, shubhasiz Ziyó Go'kalpning bilim, falsafa, psixologiya, san'at, til, axloq, mantiq, metafizika va boshqa mavzularda dunyoqarashini tizimli bir holatda ifoda etgan, mukammal bir asardir. Kelajak bilim hayotini, turk falsafasi, turk madaniyatini qanday holatda olib borish haqida bu kitobdan ma'lumot olamiz.

Ziyó Go'kalpning bu kitobidan o'rganiladigan narsalar juda ko'pdir. Chunki, Ziyó Go'kalpning bu asarida asosiy e'tibor tushuncha va dunyoqarashni tizimli holatga keltirgan holda o'rganishni tadbiq etadi. Mustafó Kamol Otaturkning

“Vujudimning otasi Ali Riza Efendi, Hislarimning otasi Namik Kemal, Fikrlarimning otasi Ziyó Go'kalpdir”²⁴. Bu ta'rifdan bilishimiz mumkinki, Ziyó Go'kalpning Turkiya davlati uchun asosiy tamal toshini qo'yganlardan biri hisoblanadi.

Sharq dunyosi bilan G'arb dunyosining falsafiy bilimini beqiyos bir shaklda o'zida to'plagan, kitoblari bilan kelajakda ham haqiqiy bilimga ko'ngil qo'yishga yo'l ochib bergan²⁵.

Ziyó Go'kalpning falsafiy qarashlarini fransuz faylasufi Bergson qarashlaridan ta'sirlanganligini hamda mashhur fransuz jamiyatshunosi Fransiyada sotsiologiyaga asos solgan Emile Dyurkgeym (1858-1917) ning g'oyalari naqadar jamiyatga kerakliligini ta'kidlagan²⁶.

Ziyó Go'kalpga ko'ra, atrofimizda ro'y beradigan jarayonlarni bir-biriga o'xshash holatlar bilan baholab, ishlamoq, dam olmoq, tushinmoq kabi fellardan

²⁴ http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gukalp/Xuseyin.R. Ziya Go'kalp.Felsefe Dersleri, Ankara. 2006.-B. 4. (Erkin Xamdámov tarjimasí)

²⁵ http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gukalp/Xuseyin.R. Ziya Go'kalp.Felsefe Dersleri, Ankara. 2006.-B. 4. (Erkin Xamdámov tarjimasí)

²⁶ http://www.turkiye.tr/tarih/ziya_gukalp/Xuseyin.R. Ziya Go'kalp.Felsefe Dersleri, Ankara. 2006.-B. 4. (Erkin Xamdámov tarjimasí)

hayotimiz davomida to'g'ri tomonga yo'naltirgan holda, tadbqiq qilsak va bu jarayonni amalda qo'llasak, biz tasnif qilish bosqichidan oqilona foydalangan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, Ziygo Go'kalp hayoti jamiyatda tanazzullar avj olgan bir davrda o'tdi. U shunday og'ir sharoitda, xalqining muammolarini ko'rdi va unga o'ziga xos yechim topishga urindi. Buni u xalqning ma'naviy dunyosini o'zgartirishda, uning dunyoqarashini o'zgartirishda va eskirib qolgan, o'z davrini o'tab bo'lgan hukumatni almashtirish kerak ekanligida, deb biladi. Biz bularni faylasufning "To'g'ri yo'l" asaridagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalaridan ham anglab olishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ziygo Gokalp, Turkchilik asoslari. (turkchadan A.Zohidiy tarjimasini) –T.: GFNTI. 1994.
2. Alaaddin Korkmaz, Ziya Go'kalp aksiyonu mesrutiyet ve cumhuriyet uzerindeki tesirleri. –T.: 2000.
3. Hasan Ali, "Mütefekkir Gökalp'in En Büyük Hizmetleri", Millî Mecmua Ziya Gökalp Nüshası, -Teçrinisani 1340 (1924).
4. Süleyman Karataş, Osmanli eğitim sisteminde batililaşma. <http://www.egitim.aku.edu.tr>.
5. Huseyin R., Ziya Go'kalp. Felsefe Dersleri. –Ankara. 2006.
6. Ziya Gökalp, Doğru Yol. –Ankara: Ekim, 2006.

SOG'LOM TURMUSH TARZINI TARG'IB QILISHDA JISMONIY TARBIYANING ROLI

Amriyeva Dilfuza Ro'ziyevna

Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi

Tel: +998915785629

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog'lom turmush tarzi asoslari, asosiy tamoyillari borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati borasida ilmiy xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: sog'lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya, badantarbiya, sport, jismoniy faollik.

Kirish. Salomatlik nafaqat har bir inson, balki butun jamiyat uchun bebaho boylikdir. Har birimiz kuchli va sog'lom bo'lish, harakatchanlikni, kuch-quvvatni, energiyani iloji boricha uzoq vaqt davomida saqlab qolish va uzoq umr ko'rish istagiga egamiz. Bu hayotning asosiy qadriyatidir. Inson salomatlikni hech qanday pulga sotib ololmaydi, uni yoshligidan, bolaning hayotining birinchi kunlaridanoq

saqlash, himoya qilish va yaxshilash kerak. Sogʻlom turmush tarzi axloqiy tamoyillarga asoslangan, oqilona tashkil etilgan, faol, mehnatkash, qattiqqoʻl va shu bilan birga atrof-muhitning salbiy taʼsiridan himoya qiluvchi, insonga maʼnaviy, aqliy va jismoniy salomatlikni saqlashga imkon beradigan hayot tarzidir. Har bir inson oʻz salomatligini mustahkamlash va saqlash, mehnat qobiliyatini saqlab qolish, jismoniy faol boʻlish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Zamonaviy dunyoda odamlarning hayoti koʻproq va yanada koʻproq kuch talab qiladi. Murakkab zamonaviy texnologiyalarni oʻzlashtirish bilan bogʻliq boʻlgan aqliy, ruhiy, shuningdek, turli jismoniy ortiqcha yuklar, turli metabolik kasalliklarga, ortiqcha vaznga, shuningdek, yurak-qon tomir kasalliklarining paydo boʻlishiga olib kelishi hech kimga sir emas. Kun davomida tayanch-harakat tizimi bilan bogʻliq boʻlgan inson faoliyati minimal darajaga tushiriladi: avtomatlashtirish, ishlab chiqarishdagi zamonaviy texnologiyalar, liftlar, avtomobillar, kundalik hayotdagi idishlarni yuvish mashinalari inson faolligining juda past darajasini ifodalaydi. Ushbu omillarning inson salomatligiga salbiy taʼsiri shunchalik kattaki, tananing ichki himoya funksiyalari ularga dosh bera olmaydi. Inson yuqori jismoniy faollikka ega boʻlishi kerak. Shuning uchun ham ilmiy-texnikaviy jarayon qanchalik tez rivojlansa, inson salomatligi shunchalik koʻp uning jismoniy faolligi darajasiga bogʻliq boʻladi. Jismoniy tarbiyasiz bugungi kundagi turli salomatlik bilan bogʻliq boʻlgan muammolarni toʻliq hal qilish deyarli mumkin emas. Jismoniy tarbiyaning ahamiyatini tushunish uchun inson uning hayotidagi oʻrnini tushunishi kerak.

MATERIAL VA METODLAR.

Jismoniy tarbiya va sport eng muhim ijtimoiy institutlardan biri boʻlib, davlat tomonidan moliyalashtirish va boshqaruvni, fuqarolarning oʻzlari ishtirok etishdan manfaatdorlikni oʻz ichiga oladi. Shu munosabat bilan zamonaviy yoshlarning jismoniy faollik darajasini jismoniy madaniyatga boʻlgan talab va uning jamiyatda rivojlanishi samaradorligining eng muhim mezonini deb hisoblash mumkin [2].

Sogʻlom turmush tarzini shakllantirishning muhim omillaridan biri ommaviy sport va jismoniy tarbiyadir. Jismoniy tarbiya va sportga boʻlgan motivatsiya koʻplab omillar taʼsirida shakllanadi, ularni oʻrganish yoshlarning jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarini tashkil etish tizimini takomillashtirish boʻyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Sport inson hayotidagi jismoniy faollikni oshirish usullaridan biri boʻlib, uning jarayonida shaxsning oʻzini oʻzi baholash jarayoni yuzaga chiqadi. Aynan shuning uchun ham sport submadaniyatga shaxsning shaxsiy rivojlanishini belgilovchi va uning turmush tarzini shakllantiradigan ijtimoiy institut sifatida chuqur kirib boradi [3].

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ekspertlarining fikriga ko‘ra, salomatlik 50-55% insonning turmush tarziga, 20-23% irsiyatga, 20-25% atrof-muhit (ekologiya) holatiga va 8-12% milliy sog‘liqni saqlash tizimining faoliyatiga bog‘liq. Shunday qilib, inson salomatligi ko‘p jihatdan uning turmush tarziga bog‘liq. Zamonaviy tushunchalarga ko‘ra, sog‘lom turmush tarzi - bu ijtimoiy va kasbiy funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishini ta‘minlaydigan tananing adaptiv va zaxiraviy imkoniyatlarini mustahkamlaydigan va takomillashtiradigan kundalik inson faoliyatining tipik shakllari va usullari majmuasidir [4].

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish deganda uni ommalashtirishga qaratilgan tadbirlar, jumladan, ta‘lim dasturlari, ijtimoiy harakatlar, ommaviy axborot vositalarida reklama qilish tushuniladi. Reklama va targ‘ibot kishilar ongiga ta‘sir etishning kuchli mafkuraviy vositasi bo‘lib, ular jamiyat a‘zolari ongida jismoniy tarbiya va sportning yangi jozibali ijtimoiy obrazlarini shakllantiradi, aholining keng qatlamlarini sog‘lom turmush tarziga targ‘ib qiladi.

Jismoniy madaniyat nafaqat sog‘lom turmush tarzining tarkibiy qismlardan biri, balki eng muhim elementidir. Jismoniy madaniyat darajasi muntazam ertalabki mashqlar, muntazam jismoniy tarbiya va salomatlik darslari, shuningdek, salomatlikni saqlash va yaxshilashga qaratilgan jismoniy faoliyatning boshqa turlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, birinchi navbatda, shaxsning jismoniy madaniyatini shakllantirish, shuningdek, mehnat, dam olish, uyqu, jismoniy faollik, ovqatlanish va zararli odatlarni yo‘q qilish rejimini amalga oshirishi bilan bog‘liq [5].

Hozirgi vaqtda ommaviy kommunikatsiya vositalari, qoida tariqasida, elita sportini yoritishga, aniqrog‘i, ommaviy jismoniy tarbiyaga e‘tibor qaratmoqda. Hozirgi vaqtda ommaviy axborot vositalarining asosiy e‘tibori tezkor ma‘lumotlarni tarqatishga qaratilgan bo‘lib, sport va jismoniy tarbiyaning targ‘ibotiga deyarli e‘tibor qaratilmagan. Ushbu axborot siyosati natijasida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport hayotiga jalb etilgan aholining past foizi kuzatilmoqda. Zamonaviy jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy qadriyatlar, masalan, har qanday holatda ham boylikka intilish, milliy va madaniy qadriyatlarga yuzaki munosabat, urf-odatlariga hurmatsizlik, jismoniy madaniyatning haqiqiy qadriyatlari bilan almashtirilishi kerak [1].

Sportni targ‘ib qilish odamlarning ruhi va ongiga ta‘sir qila boshlaydi. Zero, muntazam jismoniy mashqlar salomatlikni yaxshilashga, ish kunidan keyin stressdan xalos bo‘lishga, ortiqcha tushkunlikni bartaraf etishga va inson ongidan yomon fikrlarni olib tashlashga yordam beradi.

Bizning zamonamizda jismoniy tarbiya va sport shunday ijtimoiy kuch va ahamiyat kasb etdiki, ularning jamiyat tarixida o‘xshashi yo‘q. Shu nuqtai

nazardan jismoniy tarbiya va sportning ulkan ijtimoiy salohiyatidan mamlakat taraqqiyotida samarali foydalanish lozim.

V.A. Suxomlinskiy: “Bolalar salomatligi haqida g‘amxo‘rlik qilish - o‘qituvchining eng muhim ishi. Ularning ma‘naviy hayoti, dunyoqarashi, aqliy rivojlanishi, bilimi mustahkamligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi bolalarning quvnoqligi va shijoatiga bog‘liq”, – degan fikrni ilgari suradi. Bunda ham albatta jismoniy tarbiya va sport mashqlaridan bolaning aqliy va ruhiy rivojlanishida foydalanish maqsadga muvofiqdir [5].

Jismoniy tarbiya sog‘lom turmush tarzini shakllantirish vositasi sifatida maktabda maktab o‘quvchilarining butun ta‘lim davrida qo‘llaniladi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, bir-birini to‘ldiradigan va maktab o‘quvchilari jismoniy faoliyatini ifodalovchi turli shakllarda amalga oshiriladi:

- o‘quv mashg‘ulotlari jismoniy tarbiyaning asosiy shakli bo‘lib, maktab o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish jarayoniga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi mumkin;

- umumiy yoki terapevtik jismoniy mashqlar guruhlarda jismoniy tarbiya jarayonini tabaqalashtirilgan holda amalga oshirish imkonini beradi, bu o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda sog‘lom turmush tarzini joriy etish usullaridan biri hisoblanadi;

- kundalik tartibdagi jismoniy mashqlar sog‘likni mustahkamlash, aqliy va jismoniy faollikni oshirish, maktab o‘quvchilarining tarbiyaviy mehnati, turmush va dam olish sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, ularda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalari va odatlarini shakllantirish imkonini beradi;

- ommaviy dam olish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari maktab o‘quvchilarini jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga muntazam jalb etish, salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarziga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi [4].

XULOSA.

Jismoniy madaniyat sog‘lom turmush tarzi normalari bilan uyg‘unlikda inson salomatligini saqlash va mustahkamlash masalalarini amaliy hal qiladi. Jismoniy madaniyat jismoniy rivojlanish va jismoniy imkoniyatlarni kengaytirish orqali inson hayotining deyarli barcha jabhalariga ta‘sir qiladi: u shaxsning ma‘naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi, o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun motivatsiyani kuchaytiradi, ijtimoiy moslashuvni amalga oshiradi, ekologik muammolarga munosib javob berishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Sogʻlom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099 sonli Farmoni.
2. Usmonhojayev T.S. va boshqalar. Bolalar va oʻsmirlar sport nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: Ilm–Ziyo, 2007.
3. Евсеев, Ю.И. Физическая культура. – Ростов н/Д: Феникс, 2002. 384 с.
4. Краснов, И.С. Методологические аспекты здорового образа жизни россиян // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. 2004. №2. С.61 – 63.
5. Михайлов С.С. Спортивная биохимия. – М.: Советский спорт, 2004 г.

THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF NIKOLAI NOSOV'S STORIES

Rustamova Mahira Husniddin kizi
Fergana region, Uzbekistan district
37 general secondary education schools
Teacher of Russian language and literature

Annotation. The question of the originality of Nosov's humor and its lexical expression is raised. Particular attention is paid not only to the analysis of the psychology and behavior of the characters in certain situations, but also to the identification of the original type of thinking of the child, different from adults. The following scientific methods are used in the study: structural-typological, hermeneutic, theoretical-literary and comparative analytical. The novelty of the study lies in the fact that for the first time an attempt was made to systematically analyze the lexical means of creating a comic effect in the humorous stories of Nikolai Nosov. The relevance of this study, on the one hand, is due to the constant interest of Russian and foreign researchers in Nosov's work, on the other hand, it lies in understanding the little-studied lexical means of the comic in the writer's stories. The analysis shows the originality of Nosov's humor in terms of language and proves the significant role of lexical means in creating a comic effect, revealing the character of the heroes and the peculiarities of children's thinking.

Key words: Nikolay Nosov, children's thinking, comedy, humorous stories, lexical means, irony, paradox, tautology, children's etymology, personification.

Nikolai Nosov is a famous Russian children's writer, whose works are loved by both children and adults. Nosov's stories often depict children and their fantasies, daydreams and adventures in ordinary life. One of his most famous works is "Neznakomka" (The Unknown Girl), other important stories include:

"Zhenya, Yunya and Bobo" : This story includes children and their friendships, adventures and interesting situations in ordinary life. Nosov often

includes interesting stories and funny situations to make children's characters more vivid.

"Vitya Malyaev and his friends": In this work, Nosov shows children's interactions and creative approaches to solving their problems. This story teaches children the importance of teamwork, friendship and mutual support.

"Mishka and Jigsaw": Mishka and his friends have interesting adventures in the story. This play teaches children about friendship, courage and creative thinking.

The following main themes can be seen in Nosov's stories:

Children's world: Nosov knows the world of children very well and describes interesting, understandable stories for them. Children's imagination and their entertaining adventures are central in the works.

Friendship and teamwork: Nosov's stories contain many examples of how children grow through friendship, teamwork, and mutual support. Their joint efforts play an important role.

Variation and creative thinking: In Nosov's stories, children succeed in solving their problems by taking a creative approach and implementing interesting ideas.

Funny and educational moments: Nosov creates interesting and funny stories for children, which will attract their attention and make the learning process more interesting.

Nosov's stories are not only interesting for children, but also help them learn, develop and form good behavior. Their depicted adventures and characters help children understand different aspects of life and serve as good role models for them.

Nikolai Nosov is one of the most influential representatives of Russian children's literature, and his stories, in particular, his works in the series "Nekli" (Nikita) and "Mishka" (Mishka) are of great importance for children. Nosov's stories are distinguished by several important aspects:

Understanding the world of children: Nosov's works are famous for accurately expressing their world, their feelings and dreams for children. It covers the simple everyday problems of children in an interesting and understandable way.

Being an example: Nosov's stories are a good example for children. It shows how their heroes deal with adversity when faced with it, which teaches young people to fight and persevere.

Educational value: Nosov's stories are filled with games and situations that have educational value for children. They teach children values such as friendship, helping, behavior and responsibility.

Bright images and interesting plots: Nosov's writing style is very interesting for children. Their plots are colorful and exciting, which will interest children and increase their interest in reading.

Creative approach: Nosov pays attention to the development of children's imagination in his works. She uses original and creative elements in her stories, which expand children's imaginations.

Nosov's stories have a strong place in children's literature, and his works still have a great influence on the young generation.

Nikolai Nosov's stories are full of funny stories for children, and many of his works contain funny elements. All of them are designed to cheer up children and encourage them to learn. Here are some funny stories from Nosov's stories:

"Nekli" series: Nosov's "Nekli" series, especially in the stories "Nekli and the Big Bad Robber" or "Nekli and the Smart Witch" have many funny situations. For example, Nekli gets into interesting and funny situations with his unexpected behavior. Their usual interesting stories and strange behavior will be funny for children.

"Mishka" series: Mishka (Mishka) series is especially funny because of Mishka's crazy actions and unique ways of dealing with situations. Mishka always tries to solve problems in new, unusual ways, which creates many funny situations. "Little Friends" (Malysh i Karapuz): This story describes the friendship and fun adventures of children. For example, they solve their little problems in a fun and funny way, which creates many funny situations.

"Wonderful adventures" (Wolshebny speller): In this story, children and their wonderful games, fantastic events and funny situations are described. Nosov creates interesting and funny problems for children with his creative approach.

Funny stories in Nosov's stories provide not only entertainment for children, but also opportunities for learning and development. Laughter and interesting situations in his works help to develop children's creative thinking.

Nikolai Nosov's stories have many useful aspects for children and young readers. His works are distinguished not only by being interesting and educational, but also have a great impact on the education and development of children. Below are some of the main benefits of Nosov stories:

1. Educational Influence

Nosov's stories teach children moral and social values. His works deal with the themes of friendship, helping, self-control and responsibility. The characters show right and wrong ways through their actions.

2. Development of creative thinking

Nosov's stories contain funny situations, fantastical elements and creative approaches. It expands children's imagination and encourages them to think creatively.

3. Increase Student Interest

Nosov's interesting and original plots increase children's interest in reading. The fact that they are written in a manner adapted to the children's world increases the interest of the readers in the book.

4. Development of skills

Nosov's stories help children to develop problem-solving skills and to correctly assess situations. How the characters solve problems provides children with practical lessons that they can apply in their own lives.

5. Developing Emotional Intelligence

Nosov's works help children to understand their own feelings and to understand the feelings of others. This, in turn, contributes to the development of emotional intelligence.

6. Youth Alleviation of Problems

Nosov's stories shed light on children's everyday problems and life situations, which helps children understand how to manage their problems and how to alleviate them.

7. Education through Funny Events

Funny events in Nosov's stories serve as an educational tool that is interesting and easy to accept for children. Learning through laughter facilitates the learning process of children.

Nosov's stories are known for their strong place in children's literature, and his works still contribute to the development of children and young people today.

References

1. The life and work of Nikolai Nosov: Collection / Comp. S.E. Mirimsky: Designed by V. Kyshtymov. - Moscow: Det. lit., 1985. - 256 p.
2. Носов Н. Н. Мишкина каша: рассказы / Н. Н. Носова. – Москва: Махаон, АзбукаАттикус, 2017. – 112 с.
3. Носов Н. Н. Бобик в гостях у Барбоса: повесть, рассказы / Н. Н. Носова. – Москва: Махаон, Азбука-Аттикус, 2016. – 128 с.

4. Литературный энциклопедический словарь / Под общей ред. В. М. Кожевникова и П. А. Николаева. – Москва: Советская энциклопедия, 1987. – 752 с.

TALABALARDA XALQ HUNARMANDCHILIGI ORQALI JAMOADA ISHLASH VA MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Esanova Sarvinoz Uktamovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Tel: +998 91 510 83 80

E-mail: esanovas@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda xalq hunarmandchiligi orqali jamoada ishlash va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida jamoaviy faoliyat va interfaol metodlar asosida kompetensiyalarni shakllantirishning samarali yondashuvlari tahlil qilingan. Xalq hunarmandchiligi amaliy mashg'ulotlari, loyiha faoliyati va ustoz-shogird an'anasi orqali talabalarda hamkorlik, muloqot, mas'uliyat va ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlantirilishi ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini boyitish va talabalarning ijtimoiy-faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: xalq hunarmandchiligi, jamoada ishlash, muloqot ko'nikmalari, pedagogik texnologiyalar, talaba, interfaol metodlar.

Hozirgi kunda Respublikamizda xalq hunarmandchiligini qayta tiklash muammosi dolzarb hisoblanadi. Turli hunarmandchilik ustaxonalari, artellar va ijodiy studiyalar faoliyat yuritmoqda. Ushbu tendensiya milliy madaniyatning ildizlariga, milliy o'zlikka va o'zaro hamjihatlikka qaytish bilan bog'liq. Shuningdek, zamonaviy, tez rivojlanayotgan jamiyat sharoitida xalq madaniyatini saqlash ayniqsa muhimdir, chunki turli madaniyatlarning to'qnashuv nuqtalarida texnikalar, hunarmandchilik turlari va boshqa amaliy etnik va milliy xususiyatlar assimilyatsiyaga uchraydi.

Xalq badiiy hunarmandchiligi – bu xalq ijodining shakllaridan biri bo'lib, ma'lum hududda xalq san'ati an'alarini jamoaviy o'zlashtirish va avloddan-avlodga davom ettirish asosida, xalq badiiy hunarmandchiligi ustalarining ijodiy qo'l mehnati va mexanizatsiyalashgan mehnati jarayonida utilitar va dekorativ maqsadga ega badiiy buyumlar yaratish faoliyatidir.

Ta'kidlash joizki, so'nggi o'n yillik mobaynida iqtisodiy va sanoat omillarning ko'pligi xalq hunarmandchiligining ma'naviy va axloqiy asoslarini

susaytirishga, xalqning turmush tarzi va etnik hayotining ajralmas qismi bo'lgan hunarmandchilik va badiiy hunarlarni yo'qotishga olib keldi. "Xalq ijodi mahsulotlari arzonroq sotib olinadi, qo'l mehnati mahsulotlari esa qimmatbaho" kabi tendensiya asta-sekin kamayib bormoqda [1].

Bugungi kunda xalq hunarmandchiligi mahsulotlari nafaqat eksklyuziv, chiroyli va zamonaviy buyumlar sifatida qadrlanmoqda, balki ular turmush tarzi va madaniyat elementlarini ham aks ettiradi. Shu bilan birga, hozirgi kunda dekorativ-amaliy ijod ustalari va hunarmandlar sonini ko'paytirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu muammoni hal qilishga nafaqat qo'l mehnati bilan shug'ullanadiganlar, balki madaniy va ta'lim muassasalari, ma'muriy tuzilmalar ham jalb qilinmoqda va ular turli qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish shakllarini amalga oshirmoqda.

Asosan, bu hunarmandchilik yarmarkalari, festivallar, dekorativ-amaliy ijod ko'rgazmalari orqali amalga oshiriladi. Ushbu tadbirlar doirasida nafaqat hunarmandlarning ishlari namoyish etiladi, balki bolalar, o'smirlar va kattalar uchun master-klasslar va o'quv mashg'ulotlari ham tashkil etiladi [2].

Hozirgi kunda O'zbekistonda xalq hunarmandchiligini qayta tiklash va rivojlantirish muammosi dolzarb hisoblanadi. Turli hududlarda hunarmandchilik ustaxonalari, artellar va ijodiy studiyalar faoliyat yuritmoqda. Turli qo'l mehnati va hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan shaxslar madaniyat bo'limlari va badiiy kengashlarga dekorativ-amaliy ijod ustasi maqomini olish bo'yicha arizalar taqdim qilmoqda. Ushbu tendensiya milliy madaniyatning ildizlariga, o'zlikni anglashga va o'zaro hamjihatlikka qaytish bilan bog'liq. Shu bilan birga, zamonaviy tezkor rivojlanayotgan jamiyatda xalq madaniyatini saqlash ayniqsa muhim, chunki turli madaniyatlarning to'qnashuv nuqtalarida texnikalar, hunarmandchilik turlari va boshqa amaliy etnik xususiyatlar assimilyatsiyaga uchraydi. Milliy hunarmandchilikning saqlanishi va rivojlanishi nafaqat madaniy meros, balki ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun ham asosiy vosita hisoblanadi.

Xalq hunarmandchiligi talabalarda jamoaviy ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali platformasini taqdim etadi. Jamoada ishlash ko'nikmalari, mas'uliyatni his qilish, muloqot madaniyati va ijodiy fikrlash kabi ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning roli katta. Ularga interfaol mashg'ulotlar, loyiha ishlari, master-klasslar, ustoz-shogird an'anasi va qo'shimcha ta'lim muassasalaridagi to'garaklar kiradi. Interfaol mashg'ulotlar talabalarni faol ishtirokchiga aylantiradi, guruh muammolarini yechishga jalb qiladi va rolli o'yinlar orqali kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi. Loyihaviy faoliyat orqali talabalar mustaqil va guruh loyihalarini amalga oshiradi, vaqtni boshqarish va mas'uliyatni o'rganadi. Ustoz-shogird

an'anasi amaliy hunarmandchilik mashg'ulotlari orqali shaxsiy va jamoaviy malaka shakllanishini ta'minlaydi, ijtimoiy o'zaro aloqalarni kuchaytiradi. Qo'shimcha ta'lim muassasalari esa bolalar va o'smirlar uchun master-klasslar va festivallar tashkil etib, ularning motivatsiyasini oshiradi va hunarmandchilikka bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi [3].

Talabalar guruhlariga bo'linib, xalq hunarmandchiligi bo'yicha loyiha va amaliy mashg'ulotlar olib bordilar. Har bir guruhda jamoaviy ishlash va muloqot jarayoni kuzatildi, murabbiylar tomonidan nazorat va qo'llab-quvvatlash amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlandi, ular vazifalarni taqsimlash, o'zaro maslahatlashish va qaror qabul qilish qobiliyatini egallashdi. Shuningdek, interfaol metodlar va master-klasslar orqali talabalar o'z fikrini ifoda etish, boshqalarni tinglash, tanqidiy fikrlash va konstruktiv mulohazalarni qabul qilishni o'rganishdi. Hunarmandchilik mashg'ulotlari talabalarda diqqatni jamlash, ijodiy yechimlar topish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini berdi.

Xalq hunarmandchiligi nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki talabalarda milliy qadriyatlarni anglash, etnik o'zlikni his qilish va madaniy merosni qadrlashni ham rivojlantiradi. Talabalar guruh loyihalarini amalga oshirayotganda bir-birining tajribasidan o'rganadi, muammolarni hal qilishda birgalikda fikr yuritadi va o'zaro mas'uliyatni his qiladi. Ushbu jarayon ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi [4].

Tadqiqot davomida bolalar va o'smirlar bilan ishlashning yoshga mos metodik yondashuvlari aniqlangan. Boshlang'ich yoshdagi bolalar uchun mashg'ulotlar tanishtiruvchi xarakterga ega bo'lib, ular hunarmandchilik asoslari bilan tanishadi. O'smirlar va talabalarda esa loyiha ishlari va interfaol metodlar orqali chuqurroq amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi. Bu yoshdagi talabalarda diqqat, sabr-toqat, jamoaviy mas'uliyat va muloqot ko'nikmalari to'liq rivojlantiriladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samaradorligi oshadi. Masalan, ustoz-shogird an'anasi talabalarga nafaqat hunarmandchilikni o'rgatadi, balki jamoada ishlash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Loyiha ishlari esa talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va guruhdagi hamkorlikni mustahkamlashga undaydi. Master-klasslar va festivallar orqali talabalar nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki madaniy qadriyatlarni qadrlashni o'rganadi.

Shuningdek, xalq hunarmandchiligi orqali talabalarda kreativ fikrlash, ijodiy yondashuv va mas'uliyat hissi rivojlantiriladi. Talabalar guruh loyihalari davomida

o‘zaro fikr almashadi, muammolarni birgalikda hal qiladi va yangi g‘oyalarni ishlab chiqadi. Bu esa ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi [5].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalq hunarmandchiligi talabalarda jamoaviy ishlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon talabalarda milliy madaniyat, etnik o‘zlik va madaniy qadriyatlarni anglashni ta‘minlaydi. Qo‘shimcha ta‘lim muassasalari, master-klasslar, festivallar va loyiha ishlari orqali talabalar ijtimoiy kompetensiyalarini amaliy tarzda rivojlantiradi.

Umuman olganda, xalq hunarmandchiligi asosida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy va amaliy ahamiyati katta. Bu nafaqat milliy madaniyatni saqlash va targ‘ib qilishga, balki yosh avlodni ijtimoiy faol, jamoaviy ishlashga qodir, mas‘uliyatli va ijodiy shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Афанасьева А.Б. Этнокультурное образование: сущность, структура, содержание, проблемы совершенствования. Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. – 2009. – №3. – С. 189–195.
2. Ларионова Л.А. Профессиональные ценности: проблемное поле, интерпретация. Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Гуманитарные науки. – 2017. – №10. – С. 100–105.
3. Amanjonova D.A. O‘zbekistonning qo‘l mehnati bilan yaratilgan bebaho boyliklari. – Toshkent. 2011. – 78 b.
4. Boboyeva Y.V. Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda rekreativ texnologiyalar vositalari orqali yondashuv. Zamonaviy fan va ta‘lim muammolari. 2017. – № 3. – B. 132-137.
5. Duncker K. Zur Psychologie des produktiven Denkens. – Berlin: Springer, 1935.

MUNDARIJA

Abduganiyeva G.K. Emotionally coloured words3

Hayitov Q.Q. Sust o‘zlashtiruvchi talabalar tafakkurining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari ...6

Porubay I.F. About the features of an internet hypertext.....11

Porubay I.F. The influence of internet language and its relationship with literary style.....14

Ro‘zmetov Sh. Ta’lim sohasida buxgalteriya hisobining ahamiyati16

Мажитов М.А. Буюк аллома Имом Термизий маънавий идеал сифатида19

Tashimov B.B., Allamuratov Sh.A. History of Djarkurgan tower22

Jamolova M. Yosh pedagogning kasbiy o‘zligini anglashi va ijtimoiy-psixologik jihatlari26

Buranova D.A., Anvarov B.E. Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarning o‘rni30

Abdullayeva O.M., Joraboyev B. O‘zbek xalq tomosha san’ati tarixi haqida33

Sanayeva M.I. Biologiya fanini o‘qitishda elektron-axborot ta’lim muhitini yaratishning ilmiy-nazariy asoslari36

Салохиддинова Н.И. Зулфия Мўминова шеърларида ватан мавзуси38

Vasixov A.N. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sog‘lomlashtirish muammolarini Hap Ki Do sporti orqali amaliy va nazariy tizimlashtirish41

Mavlanova B.Sh. Savdo zonasini tashkil qilish tamoyillari44

Abdulxafizov S.A. Rediska o‘simligini biologiyasi va turli usullarda yetishtirish texnologiyalari47

Uralov O.M. O‘zbekistonda kabel mahsulotlari bozorini tahlil qilish korxonani raqobatbardoshligini boshqarish madelini ishlab chiqilgan51

Uralov O.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida jahon bozorida “Uzkabel” AJ QKning faoliyatini rivojlantirishda taklif etilayotgan chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini baholash54

Salayeva D.A. Chakana savdoda marketingning o‘ziga xos xususiyatlari.....56

Abdurahmonova Sh.B. Kulturologik yondashuvda madaniy kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.....59

Salayeva D.A. Chakana savdoni kontent tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.....63

Ахмедова Р.А. Теоретический обзор понимания благосостояния66

Ismailov F.R. Birja faoliyatini rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari.....68

Baqoyeva D.M. Sanoat korxonalarining sotuv tizimida marketing strategiyalarining qo‘llanish taraqqiyoti.....71

Mamatqulov E.S. Ma’naviy makonni yaratishning ma’firy asoslari.....74

Xamdamov E.I. Ziyo Go‘kalpning hayoti va ilmiy merosi77

Amriyeva D.R. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda jismoniy tarbiyaning roli81

Rustamova M.H. The educational significance of nikolai nosov's stories85

Esanova S.U. Talabalarda xalq hunarmandchiligi orqali jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari.....89